

U. KURBANOVA

FOLKLOR QO'SHIQ IJROCHILIGI



82.3 ya 73
K-94

259a

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI

U. KURBANOVA

FOLKLOR QO'SHIQ IJROCHILIGI

O'quv qo'llanma

(Xorazm xalfa qo'shiqlari asosida)

5151600 – Xalq ijodiyoti (Folklor va etnografiya)
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan

TOSHKENT
«TURON-IQBOL»
2018

UDK 78(075)

KBK 82.3

K 94

Mas'ul muharrir:

B. Matyoqubov, san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:

N. Qosimov, O'zDK professori, filologiya fanlari nomzodi


O. Toshmatov, O'zDSMI «Cholg'u ijrochiligi» kafedrası mudiri, professor

Kurbanova U.

Folklor qo'shiq ijrochiligi: o'quv qo'llanma. U. Kurbanova. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti. – T.: «Turon-Iqbol», 2018. – 96 b.

Ushbu o'quv qo'llanmaga xalq folklor ijrochilik amaliyotida mavjud oddiy va murakkab Xorazm xalfa qo'shiqlari jamlangan. Shuningdek, ularni ijro qilishda uslubiy tavsiyalar ham berilgan. O'quv qo'llanma musiqa san'ati va madaniyati yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida, san'at va madaniyat kollejlari o'tiladigan «Folklor qo'shiq ijrochiligi», «Yakkaxon qo'shiqchilik», «Folklor musiqa ijrochiligi», «O'zbek musiqasi ijodiyoti», «O'zbek musiqa tarixi», «O'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligi san'ati tarixi», «Folklor jamoa ijrochiligi» fanlarida qo'llash uchun qo'shimcha adabiyot sifatida mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2017-yil 28-iyundagi 434-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etildi.



ISBN 978-9943-14-555-9

© U. KURBANOVA, 2018.

© «TURON-IQBOL», 2018.

KIRISH

Barkamol avlod orzusi – eng buyuk orzu, O'zbekistonning kelajagi buyuk ekanligiga ishonch bilan yashayotgan xalqimizning orzusi, nimaniki o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik barcha olijanob ishlarimiz negizida farzandlarimizning ham jismonan, ham ma'nanan sog'lom qilib tarbiyalash, ularning farovon kelajagi, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi mujassam. Xalfachilik qadim ajdodlarimizning turmush tarzi, diniy marosim va maishiy urf-odatlar bilan bog'liq holda miloddan oldin shakllangan an'ana bo'lib, kishilarning hayotiy voqelik, jamiyat va tabiat hodisalariga bo'lgan estetik munosabatlarini badiiy aks ettiradi. Hozirgi kunda ham xalqimiz tomonidan sevib ardoqlanayotgan bu san'atni o'rganish, xususan, uning tarixiy asoslari, takomil bosqichlari, epik xotira va voqelikni badiiy talqin etish xususiyatlarini aniqlash, ajdodlarimizning turli tarixiy davrlarga oid estetik didi, ma'naviy-badiiy olami va maishiy turmush tarzi haqida ko'proq tasavvurga ega bo'lishiga imkon beradi.

«Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va ma'suliyatimizni yo'qotsak, bu qadriyatimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda, o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin», – deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov¹. Bu borada xalq og'zaki ijodi o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda tarbiyaviy imkoniyatlari kengligi bilan ahamiyatlidir.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008. – B. 4.

O'zbek elining mustaqillikka erishishi, ozodlik nash'asidan bahramand bo'lishi, o'zbek xalqi ongida tamomila yangi ko'lamli dunyoqarashning shakllanishi, xalqimizning o'zligini tanishiga imkon yaratib, uning porloq kelajagi uchun zarur yangi poydevorni bunyod etmoqda.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning san'at ahliga bo'lgan katta e'tibori va g'amxo'rligi tufayli, o'lkamizda o'tkazilayotgan san'at sohasidagi tanlov hamda festivallar, iste'dodli, zahmatkash xalqimizning ko'p qirrali an'anaviy milliy san'atini qayta tiklab, yuksak cho'qqilarga ko'tarishga shart-sharoitlar yaratdi.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida bu siyosat izchil amalga oshirilib, ma'naviy tiklanish masalalariga jiddiy ahamiyat berildi. Yaqin vaqtlargacha turli sabablarga ko'ra unutilgan yoxud kamsitilgan milliy an'ana va qadriyatlarimiz, jumladan, madaniy-adabiy merosimiz o'zimizga qaytdi, uni milliy istiqlol mafkurasi asosida xolis va haqqoniy o'rganish boshlandi.

Nomoddiy madaniy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan xalq ijodiyoti, folklor qo'shiq ijrochiligi, O'zbekistonimizning har bir hududida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xalqimizning nomoddiy madaniy merosining bir qismi bo'lgan xalfachilik san'ati o'ziga xosligi bilan alohida o'rin tutadi.

Har bir hududning folklor qo'shiqlari, urf-odatlari, milliy kiyimlari, milliy raqslari va hunarmandchiligi, tarixi, yashash tarzi o'ziga xos.

Folklor ijrochiligi xalqning turmush tarzi, axloq-odobi urf-odatlari, an'analari, diniy e'tiqodining ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatini, ahdga vafu, erk, ozodlik uchun kurashdagi mar-donavorlikni tarannum etadi.

Insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda an'anaviy xalq qo'shiqlari, musiqa va folklor qo'shiqlari hamda tomoshalarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Shuning uchun, xalq musiqasiga boy bo'lgan bayramlar, sayillar hamda turli xil tomoshalar inson ma'naviyati shakllanishida va taraqqiyotida asosiy manba hisoblanadi. Har bir bayram, marosimning tarbiyaviy ta'sir kuchi shu an'ananing mazmunini

ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.

O'zbek folklorshunosligida xalq ijodkorlarining yetakchi turi bo'lgan xalfa ijrochiligi, uning folklor asarlarini kuylash, avlodlarga yetkazish va yaratishdagi o'rni masalalari tadqiq etilmagan. Vaholanki, xalfalar og'zaki badiiy ijodining o'ziga xos namunalarini aytuvchi, xalfachilik esa ijro va ijod san'ati sifatida katta badiiy-estetik hamda ma'rifiy ahamiyatga molikdir.

Xalfalar repertuarini tadqiq etish ham ana shu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar sirasiga kiradi.

Xorazm azaldan o'z kuy-qo'shiqlari bilan mashhur. Xorazm qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, inson tug'ilishidan tortib to hayotining so'nggi kunlarigacha bo'ladigan jamiyki marosimlar, an'ana va udumlarning bari qo'shiqlardan iborat. Xalq o'z fikrlarini soddalik, ravonlik, joziba va jarangdorlik, tabiiylik, samimiylik, qisqa va lo'nda, ayni paytda, go'zal hamda ta'sirchan ifodalaydi.

Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlari uzoq muddatli ijodiy jarayonda, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yuzaga keladi va yashaydi: uni goh qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to'qishadi, goh unga boshqa qo'shiqni ulashadi. Davrlar o'tishi bilan alohida ijrochilar, qo'shiqchilar, baxshilar, xalfalar o'z mahoratlari bilan yarqirab ko'rina boshladilar. Bu iste'dodlar ham og'izdan og'izga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan asarlarni ijro etar, shu jarayonda o'zidan ham nimanidir qo'shib, shaxsiy mahoratlarini namoyon etadilar.

Qadriyatlarimiz tiklanmoqda va o'rganilmoqda. Har bir voha, vodiyni o'ziga xos xarakterli qo'shiqchilik yo'llari bor. O'zbek xalqining musiqaga ixlosmandligi, kuy, ashula, lapar, qo'shiq va raqs shaydosi ekanligi hammaga ma'lumdur.

I bob. XORAZM XALFACHILIK SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI

1.1. XALFACHILIKNING TARIXIY SHAKLLANISHI

Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalari bo'yicha xalqimiz juda boy o'tmishga ega. Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan buyuk allomalarimizni butun dunyo jamoatchiligi juda yaxshi biladi va tan olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Xiva xonligida hukmronlik qilgan Muhammad Rahimxon Soniy zamonida shakllangan ilm-ma'naviyat va nafosat qadimiy Xorazmning buyuk madaniy merosining haqiqiy davomchisi hisoblanadi. Zero, xon o'zi iste'dodli shoir va sozanda bo'lganligi uchun ham sara san'atkorlarni o'z saroyiga to'playdi. Xon atrofida ajoyib adib va san'atkorlarning to'planishi o'lka tarixiy taraqqiyotida muhim ma'naviy ahamiyatga ega bo'ldi².

Xorazm vohasi azaldan o'zining kuy-qo'shiqlari bilan mashhur. Xorazm qo'shiqlari rang-barang janrlardan tarkib topgan bo'lib, shunday janrlardan biri «xalfachilik» san'atidir. Xalfalarning serjilo kuy va qo'shiqlari qadimiy musiqa madaniyatimizning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Xorazmda savodxon, gapga chechan, ayni paytda, xonandalik qobiliyatiga ega bo'lgan zukko ayollarni «xalfa» deb yuritishadi. Ushbu atama arabcha so'zdan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilining izohli lug'atida «biluvchi, o'qimishli kishi»³ tarzida sharhlangan.

«Xalfa» so'zi turli tarixiy davrlarda turlicha shakllarga ega bo'lgan. Jumladan, zardushtiylikda diniy ma'rosim va udumlarni ijro etuvchi shaxs, qadim pahlaviy tilda «qarpa», sanskrit va xorazm tilida «qalpa» deb atalgan. Aslida lug'aviy ma'nosi «kuylovchi» deb atalgan. Asl lug'aviy ma'nosi «kuylovchi» bo'lgan «qalpa» so'zi, Xorazm vohasida yashovchi turkiy tilli

² Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – T.: «O'zbekiston», 2012. – B. 301.

³ Yunusov R. Olti xalfa. – Urganch, 1994. – B. 5.

aholi lahjasida, «xalpa» shaklida ommalashib ketgan. «Avesto»ning «Hot»larini qiroat bilan o'quvchi kishilar «qalpa» deyilgan.

Shu manba asosida, «qalpa» so'zi, dastavval, zardushtiylikda Tangri va ma'budalarni ulug'lovehi alqovlarni yodlab, qiroat bilan ijro etuvchi duoxon ma'nosida qo'llanilgan hamda xalfachilikning ibodat marosimlarini o'tkazuvchi shaxs sifati-dagi ilk ko'rinishlari ana shu an'anadan boshlangan. O'rta Osiyoga Islom dini kirib kelguniga qadar xalfachilikda turli xil diniy tadbir va udumlar targ'iboti ustuvorlik qilgan.

Darhaqiqat, lug'atdagi sharh bilan biz tilga olayotgan xalfalar faoliyati ma'lum darajada aloqaga egadir. Chunki, bir vaqtlar zardushtiylikning kitobi «Avesto»ni o'qib, xotin-qizlar davrasida targ'ib etgan ayollarni ham «qalpa», ya'ni «xalfa» deb yuritishgan.

Biroq, bu o'qimishli ayollar faqat diniy kitoblarni targ'ib etish bilan kifoyalanmasdan, Navoiy, Fuzuliy kabi buyuk so'z san'atkorlarining asarlarini, kitobga ko'chirilgan xalq dostonlarini ham o'qib, xotin-qizlarni ma'nan va qalban shakllanib, ta'savvurga ega bo'lishiga hissa qo'shish bilan birga, ularning ko'ngillarini xushnud etib kelganlar.

Manbalarda keltirishicha, «xalfa» so'zi — «boshqaruvchi», «boshliq», «ustoz», «o'qimishli», degan ma'nolarni anglatib, asosan ayollar majlisi yoki bazmlarini boshqaruvchisi sifatida qo'llanilgan atamadir. Xalfalar ijodini uch guruhga bo'lish mumkin. «Ijodkor, shoira xalfalar», «kitobiy, yakka xalfalar» va «ijrochi xalfalar» (sozi xalfalar). «Yakka (yakkaxon) xalfalar» kitoblarini yoddan yoki kitobga qarab o'qiydilar. Bu guruhga kiruvchi xalfalar to'ylarda ham «Kelin salom», «Yor-yor»larni jo'rnavozsiz aytadilar. Shu bilan birga, «yakkaxon xalfalar» motam marosimlarida qatnashib, unda «Ibrohim Adham», «Bobo Ravshan» kabi xalq kitoblari va dostonlarini ma'lum ohanglar asosida o'qiydilar. Bunday xalfalarga: Roziya Matniyoz qizi, Poshsha Saidmamat qizi, Niyojjon Musayeva, Ambarjon Ro'zmetova, Parda xalfa, Oysha xalfa, Salima xalfa, Anorjon Razzaqova, Guljonposhsha Yusupova kabi xalfalar xalq orasida hurmat-e'tiborga sazovor bo'lganlar.

«Ijodkor, shoir xalfalar» guruhuga: Xonim suvchi Said Ahmad qizi, Bibijon Qosim qizi, Sharifa xalfa, Onabibi Otajonova, Onajon Sobirova kabilar kiradi. Bu xalfalar xalq dostonlarini yoddan bilganlar va ularni musiqa joʻrligida kuylaganlar. Shu bilan birga, badiiy ijod bilan ham shugʻullanib, ajoyib sheʼrlar bitganlar, musiqa bastalab, oʻzlari soz chalib kuylashgan.

«Ijrochi xalfalar» – bu xalfalar ham toʻy-bazmlarda, bayramlarda xizmat qilishadi. Ansambl uch kishidan iborat: xalfa garmon chaladi va ashula aytadi, doirachi joʻr boʻladi, raqqosa raqsga tushadi, raqs tushish barobarida lapar aytadi.

«Garmon» cholgʻusi XVIII asrning oʻrtalarida Xorazmga rus savdogarlari tomonidan olib kelingan. Xorazm sanʼatiga birinchi boʻlib Toʻrtkoʻldan Qoʻsha koʻr degan sozanda olib kelingan. Bu cholgʻuni Xivada ilk bora ommalashtirgan Qurbon ota Ismoilov (Qurbon sozchi)dir.



U chalgan garmon hozir ham Xiva sanʼat muzeyida saqlanmoqda. «Garmon» cholgʻusi shu tariqa Xorazm sanʼatida oʻzining muhim oʻrnini egallagan. Sekin-asta garmonchi sozandalar yetishib chiqa boshladi va nafaqat sozandalar, balki xonandalar orasida ham keng tarqalib ketdi. Xorazmda garmonni «soz» deb ataydilar. Xorazmda birinchi boʻlib «garmon» joʻrligida ashula aytgan erkak qoʻshiqchilardan: Qurbon sozchi (shoir Qurbon ota Ismoilov), Safo sozchi (Safo Oʻllaberganov Mugʻanniy), Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Xoʻja sozchi Otajonov, Jumaniyoz Hayitboyev, Qodir baxshi Jumaniyozov, Jumaniyoz Roʻzmatov (Jummi Shix), Abdusharif Quryozov (Abish xalfa)lar «garmon» cholgʻusini koʻproq targʻib etishda, Xorazm musiqa sanʼatining rivojlanishida oʻz hissalarini qoʻshishgan. «Garmon» cholgʻusini chaluvchi musiqachilarning ismiga «sozchi» soʻzini qoʻshib aytish, sanʼatkorlar orasida odatga kirgan.

Garmonni kirib kelishi, Xorazm ijrochiligida xalfachilikni yuksalishiga imkon berdi. Ayniqsa, garmon ko'zi ojizlar uchun qo'l keladi, chunki ular soz pardalarini barmoq bilan topish, chalish osonroq bo'lgani sababli tezda o'zlashtirib oladilar.

«Garmon» cholg'usi Xorazm san'at sohasiga kirib kelmasidan oldin, ayol xalfalarimiz o'z lapar, yallalarini doirada, barmoqlarini «shaqillatib» yoki piyolani bir-biriga urishtirib, undan chiqqan ovozga jo'r bo'lib kuylaganlar. Ularning jarangdor va mayin ovozi piyolaning nozik hamda o'ynoqi jarangi bilan qo'shilib, o'ziga xos chiroyli ohang hosil qilgan. «Garmon» cholg'usi Xorazm musiqa san'atiga kirib kelgandan so'ng, xalfalar «garmon» cholg'usini yaxshi o'zlashtirib, o'z faoliyatlarida ishlata boshlaganlar. Jumladan, Xonimjon xalfa, Bibijon Qosim Devon qizi Shoir, Onajon Sobirova, Onabibi Otajonova (Ojiza), Yoqut xalfa, Nazira xalfa Sobirova, O'g'iljon xalfa, Anabibi xalfa, Ro'zibika xalfa, Sora xalfa va boshqa xalfalar garmonni chalib, o'z yalla, lapar, dostonlarini kuylashgan. Natijada, Xorazmda deyarli yarim oktavaga diatonik tovush qatorli «garmon» cholg'usi «soz» deb nom oldi.

Tadqiqotchi T. Jalolov xalfalar ijodiga quyidagicha baho berib, shunday deb yozadi: «Xalfalar ma'rakalarning fayzi, qizlar majlisi va ayollar bazmining malikalari sanaladilar. Ular to'y va ma'rakalarga qatnashib, shodlikka shodlik, quvonchga quvonch qo'shadilar, o'ynoqi kuylar, nafis raqslar, dilbar ashullar yalla, laparlari bilan to'y ahllarining qalblariga ezgu his-tuyg'usini ulashadilar»⁴.

Xalfachilik san'ati Xorazm viloyatining Hazorasp, Xonqa, Xiva, Urganch, Shovot tumanlarida, shaharlarida rivoj topgan. Ijodkor xalfalar asosan xalq qo'shiqlari, yallalari, lapar, terma va dostonlarni ijro etishgan.

Xalfalar o'zlari ijod etgan yalla, laparlar bilan cheklanib qolmasdan, «Tohir va Zuhra», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Sayyodxon va Hamro», «Go'ro'g'li» turkumidagi ishqiyy-romantik va qahramonlik dostonlarining lirik va ijtimoiy mohiyatiga ega qismlarini kuylaganlar.

⁴ Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – T.: «O'zbekiston», 2012. – B. 225.

Xalfalar ijodida pok sevgi va sadoqat, hamkorlik hamda do'stlik, jasurlik va birodarlik kabi fazilatlar ham jo'shib kuy-lanadi hamda teran xalqchilligi bilan ajralib turadi. Xorazm folklorining rang-barang g'oyalari xalqning kundalik maishiy turmushi va ma'naviy hayotini, umuminsoniy qadriyatlarini to'la holda ifodalaydi.

An'anamizga ko'ra, to'ylar ichkarida va tashqarida o'tkazilgan. Ichkarida xotin-qizlar davrasi, tashqarida esa erkaklar soz qilishgan.

1989-yilda, Xiva shahar musiqa maktab qoshida, Ozod Zaripov tashabbusi bilan «xalfachilik», ya'ni «garmon» sinfi ochildi. Bu sinfni tashkil etishda O'zbekiston xalq artisti, Xorazm san'atining chinakam targ'ibotchisi, G'avharxonim Rahimovanning xizmatlari katta ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Unga Ravshanbek Yunusov o'qituvchi etib tayinlandi. Ular 1992-yil Ukrainada o'tkazilgan bolalar folklor festivalida qatnashib, I darajali diplom bilan taqdirlandilar.

Ustozlar yaratgan «xalfachilik» maktabi, hozirgi kunimizda ham rivojlanib, davom ettirilib kelinmoqda. Barcha san'at maktablarida maxsus «xalfachilik» sinflari tashkil etilgan.

Bu san'atni hozirgi davrimizga yetib kelishida, targ'ib etishda va yosh avlodga yetkazishda: Onabibi Sobirova, Onabibi Otajonova, Soraxon Ollaberganova, Reyma Hakimova, O'g'iljon Masharipova, Poshshajon Masharipova, Safo sozchi (Safo Ollaberganov – Mug'anniy), Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Xo'ja sozchi Otajonov, Jumaniyoz Hayitboyev, Qodir baxshi Jumaniyozov, Jumaniyoz Ro'zmatov (Jummi Shix), Matniyoz Yusupov, Zarip Latipov, Odamboy Rahimov, Ozod Zaripov, Ravshanbek Yunusov kabi o'tgan ustozlarning xizmatlari beqiyosdir.

Ota-bobolarimiz, ustozlarimiz yaratgan maktabni, boy merosni davom ettirib, san'atga oshufta bo'lgan yoshlarga, xalq og'zaki ijodi bo'lmish, folklor yo'nalishda ijod etayotgan o'quvchi-talabalarga doston, yalla, terma, lapar, xalq qo'shiqlarimizni o'quvchi, talabalarga hozirgi zamon talabiga mos ravishda, ularga sayqal berib, o'zligini asragan holda o'rgatib, bizdan keyingi avlodlarimizga yetkazmog'imiz lozimdir.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Xalfachilik maktabining tarixiy shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Xalfa so'zining lug'aviy ma'nosi qanday?
3. Xalfachilik san'ati necha turga bo'linadi?
4. Xalfalar ijodi asosan qanday musiqa ijrochiligidan tashkil topgan?
5. Xalfachilik san'atiga «Garmon» cholg'usi nechanchi yil kirib kelgan va uning ahamiyati qanday?
6. «Garmon» cholg'usida birinchi ijro etgan san'atkorlar kimlar?
7. Bu boy betakror san'atni bugungi kunimizga yetib kelishida o'z izlanishlari bilan yoshlarimizga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan ustozlar kimlar?

1.2. XALFACHILIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi nihoyatda boy bo'lib, janr tarkibi jihatidan rang-barangdir. Shu sababli, uning ijodkorlari va ijrochilari ham turli nomlar bilan ataladilar: baxshi, shoir, jirov, oqin, sannovchi, soqi, sozanda, sozchi, xalfa hamda boshqalar. Bunday nomlash turli hududlardagi tarixiy-badiiy an'analar, xalq ijodkorligining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa mahalliy ma'naviy-estetik omillar bilan izohlanadi.

Xalq ijodining yirik ijodining bilimdonlari buni to'g'ri qayd qilishganidek, «o'zbek xalq eposi» baxshilar bilan bir qatorda, xotin-qiz ijrochilarni ham yaxshi biladi.

Xorazm xalq musiqasining sayqalga boyligi va tez sur'atda ijro etishlarida o'ziga xoslik mavjud. Shu bois, ularning aksariyati 6/8 o'lchovda ijro etiladi. 6/8 o'lchov ham Xorazm musiqasida keng tarqalgan. 3/4, 2/4 o'lchovlari ham kam emas, lekin ular lirik xarakterli xalq namunalarida qo'llanilishlarini aytish joizdir. Shuning o'zi ham bu vohaga mansub bo'lgan ko'pdan ko'p qo'shiqlar, raqsbop usullarga xos ekanligini ko'r-

satadi. Odatda, 6/8 o'lehovidagi ritmik tuzilma barcha vohalarda bo'lgani kabi *ufor usuli* deb yuritiladi. Xorazm ufor usulining ham o'zgacha shakli mavjud. Farg'ona yoki Buxoro uforlarining o'ziga xosligi bo'lganidek, Xorazm uforining ham o'z shakli va jozibasi mavjuddir. Ufor usuliga mansub qo'shiqlar, yallalarga Xorazmcha ufor chertish o'rinli bo'ladi. Chunki, uforning o'zidan Xorazm musiqasiga xosligi ko'rinib turadi. Uni ham joziba bilan chertishni o'zlashtirish lozim bo'ladi. Chunki, aksariyat qo'llanmaga kiritilgan qo'shiqlar, yalla va laparlar shu usulga mosdir. Tushunarli bo'lishligi va talabalarning sabog'i uchun Xorazm qo'shiqchiligida keng ommalashgan doira usullarini keltirib o'tamiz:



Xorazm xalq musiqa namunalarining vohaga xos bir qator xususiyatlari mavjud. Bunday xususiyatlar barcha vohalarda ham kuzatiladi. Jumladan, aksariyat hollarda, Xorazm qo'shiqchilik an'analarida kuyning rivoji, ya'ni yuqori pardalarda sur'atni o'zgarishi, sekinlashishi yoki tezlashish mezonlari kuzatiladi. Shu bilan birga, yakuniy qismlarida o'lehovni o'zgarishi ham rasmga aylangan. Bu esa, kuyning oxirgi qismlarini ancha salmoqli yakunlanishini ta'minlaydi. Xorazm xalq musiqasi namunalarini o'ziga xos jihatlaridan yana biri, bu — katta, orasi keng bo'lgan intervallarga sakrama harakatlarni qo'llanilishidir.

Xorazm musiqachilari ishlatadigan iboralarning ham o'ziga xoslik jihatlari mavjud. Odatda, bu iboralar musiqachilarning orasida ko'proq ishlatilgan. Amaliyotda qo'llanilib kelingan quyidagi iboralarni uchratish mumkin: musiqa ijrochiligi bilan

shug'ullangan san'atkorlarni – sozanda; ashulachilarni – go'yanda; dutor jo'rligida xalq ashulalarini aytuvchilarini – talqinchi; ayol ashulachilarni – xalfa deb yuritib kelganlar.

Sozanda – ularning tarkibiga ikki nafar surnaychi, doirachi, tanburchi va xonanda kiradi. Sozchilar – doirachi, garmonchi xonanda hamda raqqosa va hokazo. Xalq og'zaki ijodi xalq tomonidan yaratilib, uzoq muddatli ijrochilik amaliyoti jarayonida, og'izdan og'izga, avloddan avlodlarga, ustozdan shogirdga o'tib keladi va yashaydi.

Tabiiyki, xalfachilik o'zining betakror va qadimiy madaniyati, beadad ulkan ma'naviy qadriyatlari Xorazm vohasidagina saqlanib kelayotgani tasodif emas. Avvalo, bu hol vohada, asrlar davomida, shakllangan milliy urf-odatlar, turmush tarzi adabiy-badiiy an'analar, madaniy-ma'naviy vorislik, hududiy ijro san'ati kabi sohalardagi o'ziga xosliklar bilan izohlanadi.

Zero, xalfachilik ham o'zining mazmun-mohiyati va ifoda usuliga ko'ra sinkretik (qorishiq) san'atdir. Ijrochilik va ijodkorlik xalfalar faoliyatining ikki ustuvor qirrasi bo'lib, qolgan barcha badiiy unsurlar, chunonchi: kuy, raqs, harakat, musiqa asboblari va boshqalar an'anaviy ijrochilikning mustaqil ijodkorlik bilan tabiiy uyg'unlashuvini ta'minlaydi. To'g'ri, bu xususiyat xalq ijodkorligining baxshilik an'anasida ham mavjud. Lekin, xalfachilik an'anasi faqat xotin-qizlarga xos ijrochilik turi ekanligi va ularning repertuaridagi asarlarning turli-tumanligi hamda eng qadimiy marosim va tasavvurlar bilan aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Xalfachilik ayollarga mo'ljallangan san'at bo'lsa-da, unga erkaklar ham katta qiziqish bilan qaraganlar. O'z davrining amaldor va sipohilari, xon hamda amaldorlarning man etilishlariga qaramay, Burdam xalfa, Xonim xalfa, Momo xalfa, Onajon xalfa kabi san'atkorlarning ashulalarini yashirincha tinglay boshlaganlar.

Xalq ijodkorligining professional vakillari – yaratuvchilar hamda ijrochilar orasida, Xorazmda, ma'lum va mashhurligi jihatidan baxshilardan keyin xalfalar, so'ngra esa qo'shiq-

chilar, ertakchilar, qiziqchilar, masharabozlar, qissaxonlar turadi. Bularning hammasiga xos mushtarak xususiyat shundaki, ular, asosan anʼanaviy folklor asarlarining ijrochilari boʻlib, qisman ijodkor hamdirlar. Xalfalarda esa, bu koʻlam yanada kengroq boʻlib, ijrochilik va ijodkorlikning koʻp jihat-lari mujassamlashgan. Buni batafsilroq tasavvur etish uchun xalfachilikning ijtimoiy-axloqiy mohiyati, jonli anʼanada ish-lash shakllari, takomillashuv jarayoni hamda repertuar tarkibi kabi masalalarga diqqat qilish zarur.

Xalfachilik qadim ajdodlarimizning marosimi bilan bogʻliq holda yuzaga kelgan boʻlib, xalqimizning ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari haqidagi muayyan qarashlari hamda tasav-vurlarini oʻzida ifodalaydi.

Oʻzbek marosim folklorini ikki katta guruhga: mavsumiy marosimlar va oilaviy-maishiy marosimlar folkloriga ajratadi. Bulardan, ikkinchisi esa, toʻrt guruhni: 1) soʻzning sehrli qud-ratiga asoslangani; 2) bolalarning beshikdagi davri; 3) toʻy; 4) motam marosimlari folklorini qamrab oladi. Xalfachilik oilaviy-maishiy tarkibiga mansub boʻlib, yuqoridagi 4 guruh-ning uchtasida bevosita, bittasida esa bilvosita qoʻllaniladi. Yaʼni, motam marosimi folkloridagi yigʻi-yoʻqlov va motam yor-yorlari oʻrnida xalfalar tomonidan dunyoning foniyligi, oʻlim muqarrarligi haqidagi diniy-maʼrifiy matnlar qiroat bilan oʻqiladi.

Xalfachilikka xos xususiyatlarning yashovchanligi va bar-qarorlik xossasi, ularning kishilar hayotiga qanchalik singishi hamda maʼnaviy-estetik ahamiyatining oʻrni bilan belgilanadi. Shu jihatdan, nazarimizda, xalfachilikning ilk davri – sinfiy jamiyatning dastlabki bosqichlaridagi yakkaxudolikka oʻtish davri uchun marosimning ruhiy va yoʻnaltiruvchilik funksiyasi ustuvor boʻlgan. Chunki, jamiyatga katta talafotlar keltirgan va kishilar oʻrtasida oʻzaro nizolarni kuchaytirgan koʻpxudolikdan yangi axloqiy dunyoqarashga oʻtishga, odamlarni ruhan tayy-orlash hamda ular ongiga Oliy Tangri gʻoyasini singdirishda diniy marosimlar gʻoyat muhim oʻrin tutgan boʻlib, ularning yetakchi ijrochilari orasida xalfalar ham boʻlgan.

Xalfalar ibodat marosimlarining asosiy qismi sanalgan ezigulik ma'budalarini ulug'lovchi ilohiy duolar va olqishlarni qiroat bilan o'qishgan. Bu hol xalfachilik an'anasining boshlanishi, professional-individual asoslarining ilk ko'rinishi va zardushtiy duoxonlar esa boshlovchilari bo'lib, uning ijtimoiy-estetik mohiyati keyinchalik tarixiy davrlarga bog'liq ravishda muayyan qarashlar bilan boyib, takomillashib bordi. Binobarin, xalfachilikning diniy marosimlar silsilasida shakllanishi, bu an'ananing ibtidosidagi muhim xususiyatlaridan biridir.

Xalfachilikning keyingi davrlardagi takomili, uning ijro va ijod usullaridan tabaqalanish yuz berganligi bilan xarakterlanadi. Uning ilk kurtagi, ibodat bilan bog'liq xususiyati, qisman saqlangani holda, yangi jihatlar dunyoviy mavzudagi asarlarni kuylash, to'y, motam va boshqa oilaviy marosimlarda ishtirok etishda ko'rina bordi. Chunki, asrlar davomida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlar ma'naviy qadriyatlarning turli xil shakllariga, jumladan, xalfachilikning ham mazmun-mohiyati, amal qilish doirasi hamda muayyan g'oyaviy-estetik vazifalarni bajarishdagi holatlariga ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, kishilik jamiyatining ruhiy-ma'naviy yuksalishi, boshqa san'atlar qatori, xalfachilikning ham g'oyaviy-estetik funksiyasi doirasida qator o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Chunki, xalfachilikning qadim va o'rta asrlarga xos bir qator xususiyatlari (shomonlik, zikr-jahr, diniy-fantastik dostonlarni kuylash, qissaxonlik kabi) hozirga kelib, asosan so'ngan bo'lsa ham, terma, qo'shiq, romantik dostonlarni kuylash va yangidan yaratish an'anasi faol davom etmoqda. Zero, xalfachilik san'atining yashash tarzi zamon hamda kishilar ehtiyoji bilan bog'liq holda, yangi estetik talablar taqozosiga ko'ra, muayyan g'oya va qarashlar hamda ijro usullari bilan o'zgarib boradiki, bu ham uning hayotiyligini ko'rsatuvchi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Mavzu bo'yicha savol va topshirialar

1. Xalfachilikning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Xalfachilikning ilk davri.
3. Xorazm musiqa uslubida keng ommalashgan doira usullari (chalib ko'rsating).
4. Ijodkor xalfalarning uslubi qanday?


II bob. XALFACHILIK SAN'ATI IJROCHILIGIDA LIRIK QO'SHIQLARNI O'RGATISH USULLARI

2.1. XALFACHILIK SAN'ATI NAMOYANDALARI

Xalq og'zaki badiiy ijodining boshqa sohalarini kabi xalfachilik san'ati ham asriy an'analarga suyanadi va ularning asoslari ancha turg'un bo'lsa ham mutlaq qotib qolgan emas. Tarixiy-madaniy sharoit, turmush tarzi va badiiy tafakkur takomili bilan bog'liq yangi xususiyatlar bu an'analarga qo'shilib boradi.

Xorazmda xalfachilik san'ati o'ziga xos sehrli, maftunkor san'at hisoblangan bo'lib, eng mashhur namoyandalardan: Xonim (Xonim suvchi) xalfa (1858–1926), Shukurjon xalfa (1859–1932), Bibijon xalfa Qosimova (1876–1920), Oysha qulol xalfa (1880–1949), Durxonim xalfa (1881–1936), Kish xalfa Hasanova (1881–1948), Anash Ma'ram (1882–1917), Onajon Sobirova (1885–1956), Onabibi Otajonova (Ojiza) (1889–1951), Sharifa xalfa Otasheva (1900–1972), Yoqut xalfa Seitniyozova (1903–1972), Guljonposhsha xalfa Yusupova (1906–1990), Pardagul xalfa (1907–1988), Soraxon Ollaberganova (1911–1973), Oysha xalfa Erkayeva (1914–1985), Nazira xalfa Sobirova (1922–2001), Nazira Boyjonova (1931–2011), Ullibibi Boyjonova (1933–1999), Rohatoy Xo'janiyazova (1955–2010) kabi ajoyib san'atkor ayollarimiz Xorazm qo'shiqchilik san'ati rivojiga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shganlar. Bularning aksariyati otinlar, ya'ni kitobiy xalfalar bo'lib, xalq orasida ma'rifat tarqatganlar.

Hozirgi kunda, Xorazm folklor qo'shiqchiligida, tinmay izlanishlar olib borayotgan ustozlardan: Zokir Madrahimov, Abdusharif Quryozov, Davlatnazar Yusupov, Botir Matyoqubov, Matrasul Matyoqubov, Sa'dulla Nurmatov, Tozagul O'razboyeva, Bahrom Madrahimov, Gulbahor Mo'minova, Norposhsha Matyoqubova; xalfalardan Dilbar Qalandarova, Ra'no Allaberganova, Zumrad Madrimova, Shirin Jumaniyozova, Dilbar Devonova, Nodira Bog'ibekova, Rohatoy Polyonova kabilarning xizmatlari kattadir.



Xiva xalfachilik maktabi. Bu markaz vohaning xalfachilik san'atiga asos solingan beshigida shakllangan, o'ziga xos ijodiy an'ana hisoblanadi. Bu yerda shahar madaniyati erta shakllangani, adabiy-badiiy muhitning gurkirab rivojlanganligi, o'ziga xos xalfachilik markazining yuzaga kelishiga imkon bergan.

Bu markazda xalfalar repertuaridagi asarlar janr qamrovi jihatidan rang-barang bo'lib, ijroda yakka va jamoaviy uslublar ancha ustuvor bo'lgan. Qissaxon xalfalar faoliyati va kito-biy asarlarni kuylash an'anasi keng taraqqiy etgan. Xususan, oshiq turkumidagi dostonlar va ulardan parchalarni kuylash keng yoyilgan. O'z asarlariga kuy bastalab, ijroda soz (garmon) va raqsdan foydalanish an'anasini boshlab berganlar. Shuningdek, mumtoz she'riyat (Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli)dan ko'p bahramand bo'lish tufayli, yozma adabiyotning lirik turiga mansub g'azal, muxammas kabi janrlarida asarlar yaratish ham xalfalarga xos xususiyatlardan biridir. Shu tufayli, mumtoz she'riyat va ijro san'atining o'zaro umumlashuvi, bu markazga mansub xalfalar ijodiyotida ko'proq namoyon bo'ladi.

Xonimjon Said Ahmad qizi (Xonim xalfa)

Ajoyib iste'dod sohibasi Xonim xalfa, Xonim suvchi nomlari bilan el ichida obro'-e'tibor qozongan mashhur san'atkor bo'lgan. Xonim suvchi Said Ahmad qizi 1858-yilda Xiva tumanining Pishkanik qishlog'ida tavallud topgan. U tug'ilib o'sgan qishlog'idagi Hazrati Eshon madrasasida o'z xat-savodini chiqardi. Xonimjon yoshligidan she'riyatga ko'ngil qo'yib, Navoiy, Fuzuliy she'rlarini sevib mutolaa qilgan. Xonim xalfa 1875-yilda Qutlumurod ismli suvchilik qilib kun kechiradigan yigitga turmushga chiqadi. Shu sabab, Xonim xalfani – Xonim suvchi Said Amat qizi, ba'zan Xonim suvchi, deb ham atashgan. Xonim xalfa ijodining eng qaynoq davri – XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. U nihoyatda xushovoz, istarasi issiq, yoqimtoy ayol bo'lgan. Xonimjon xalfa qo'shiq aytganda, ikki piyolani bir-biriga urib, ularning jarangi

qo'ligida xolish qilar ekan. Uning jarangdor, ohanrabo ovozigacha barcha mahliyo bo'lib qolarkan. Mehrijamol momo Xonimjon xalfani shunday ta'riflaganlar: «Xonimjon xalfaning qo'ng'iroq ovozi shu qadar jarangdor, shu qadar mayin va sehrli ediki, u qo'shiq aytganda, yosh-u qari g'ing etmay tinglar, u o'zining ohanrabo xushovozi bilan barchani sehrlab tashlardi».

Yunus Yusupovning ta'kidlashicha: «XIX asrning oxirlariga kelib, Xonimjon xalfa Said Ahmad qizi 1895-yillardan boshlab ayollar bazmlarida, to'ylarda soz chalib, kuylay boshlagan».

Xonim xalfa Said Ahmad qizi 1926-yilda vafot etadi.

Xonim xalfaning xalfachilik san'atiga qo'shgan hissasi juda kattadir. U kuylagan qo'shiqlar og'izdan og'izga, ustozdan shogirdlarga o'tib, o'lmas asarlarga aylangan va bizgacha yetib kelib, hozirgi paytda ham ijro etib kelinmoqda. Xonim xalfaning shogirdlari Anajon Sobirova (Anash xalfa), Onabibi Otajonova (Ojiza)lar ustozlarining maktabini davom ettirib, xalfachilik san'atini rivojiga va bizgacha yetib kelishida xizmatlari beqiyosdir

Oyto'ti Otajonova (Oyto'ti xalfa)

Xorazmda xalfalar, ya'ni diniy kitoblarni o'qiydigan marosim va mavludlarda faol qatnashadigan xalq orasida ma'rifat tarqatadigan otinlar, bugungi kunda ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shulardan biri – Oyto'ti xalfa Otajonova.

Oyto'ti xalfa 1928-yilda Urganch shahridagi temirchi usta oilasida tug'ilgan. Uning otasi Otajon va akasi Bekmamatlar Buxoro madrasasida ta'lim olib, o'z davrining ilmiy kishilaridan bo'lishgan. Onasi To'pajon ham zamonasining o'tkir tabibi va doyasi bo'lgan. Ana shunday ilg'or fikrli oilada tug'ilib, voyaga yetdi. Oyto'ti yoshligidanoq arab va lotin alifbosida bemalol o'qigan va o'z ilmini oshirgan.

Ilmga tashna Oyto'ti Otajon qizi ota-bobolari izidan borib, o'zi ham mustaqil ravishda «Qur'oni Karim», «Bibi Oysha», «Bibi mushkul kushod», Mashrab va Sofi Olloyor singari o'nlab arab alifbosida yozilgan eski o'zbek imlosidagi kitoblarni nafaqat

o'qib o'rgandi, balki ularni o'z do'st-yorlari, shogirdlariga ham tarjima qilib berdi va shulardan nusxalar ko'chirib berib, insonlar qalbini ma'naviyat sarchashmasidan bahramand etib keldi.

Oyto'ti xalfa marosim va mavludlarda qatnashish bilan birga, insonlar qalbiga ezgulik urug'larini sochishda o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Onajon Sobirova Safar qizi (Anash xalfa) (1885–1956)

Xorazmning mashhur xalfalaridan biri – Onajon Sobirova (Anash cho'loq). U 1885-yil Xivada dunyoga kelgan. Xonim xalfaning sevimli shogirdlaridan biri Onajon Safar qizi Xivada Anash xalfa, Anash cho'loq nomi bilan mashhur bo'lib, unga ustozi she'r yozish bilan birga, garmon chalish, ashula aytib, kuy bastalash sirlarini ham mukammal o'rgatgan. Onajon Sobirova xalq dostonlarini to'la matnini yoddan bilgan. U 16 yoshida mustaqil she'rlar yozib, uni kuyga solib, kuylay boshlagan.



Anash xalfa safdoshlari bilan

Onajon Safar qizi keyinchalik, o'z e'tiqodiga sodiq qolib, san'atkor sifatida, temir yo'l qurilishida faol ishtirok etdi va quruvchilarga o'zi yaratgan laparlarini ijro etib, mehnatkash xalqimizning ko'plab tadbirlarida konsertlar bergan. «Xorazm lazgisi»ga zo'r mahorat bilan raqsga tushib hammani qoyil qoldirgan.

O'sha paytda, Anash xalfaning oldiga chiqib, «Xorazm lazgisi»ga o'ynaydigan raqqosa bo'lgan emas. Onajon Sobirova o'z davrining yagona, mohir raqqosasi sanalgan. Ushbu qurilishning konsert va tomoshalarida u bilan Safo Mug'anniy, Madrahim Sheroziy, Nazira Yusupova, Sultonposhsha Rahimova, Onabibi Otajonova singari taniqli shoir hamda qo'shiqchilar qatnashgan. Xorazmning mashhur shoiri va qo'shiqchilari Safo Mug'anniy hamda Madrahim Sheroziylar bilan birgalikda, Moskvada, «Qishloq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi»da ishtirok etib, ular bilan aytishuv va laparlar ijro etib, Xorazm san'atini keng jamoaga namoyish etib, ko'rgazma ishtirokchilarining taqsiniga, olqishiga sazovor bo'lganlar.

Xalfa o'zining qo'shiqlarida insonlarni Ona vatanni sevishta, o'z yurti va xalqini ardoqlab, ulug'lashga, yuksak ma'naviyat, insof va diyonatga chorlagan.

Onajon Sobirova 1956-yil vafot etgan.

Onabibi Otajonova (Ojiza) (1889–1951)

Xorazm vohasida o'zining dilrabo qo'shiqlari, samimiy she'rlari bilan dong chiqargan san'atkorlardan biri – Onabibi Otajonova (Ojiza)dir. U 1889-yilda Xiva tumanidagi Qushchi Kattabog' qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi Polvonmurodboy degan kishining sholi tegirmonida xizmat qilgan.

Onabibi 3–4 yoshlariga kirganida chechak kasali bilan og'rib, ko'zi ko'rmaydigan bo'lib qoladi. Onabibi taxminan 6–7 yoshligida ularning oilasi Xiva shahriga ko'chib keladi.



Yoshligidan nogiron bo'lib qolgan qizining kelgusi taqdiri haqida qayg'urgan otasi, uni biror kasb egasi bo'lishi uchun gandimiyonlik Bibi-bon xalfaga shogirdlikka beradi. Bu yerda Onabibi Bibi-bonning otasi Qosim devondan she'riyat sirlarini o'rganadi va ayni paytda, shu qishloqlik Xudaybergan muhrkon yordamida soz chalish malakasini egallaydi. Onabibining iste'dodi yoshligidanoq kishilarning diqqatini o'ziga tortadi. Uning shirin ovozi va aql-idrokidan voqif bo'lgan Muhammad Rahimxon Feruz avlodiga man-

sub Darmonjon bika ismli ayol uni o'z homiyligiga oladi. Bo'lajak shoira bika bundan keyingi hayotida unga katta moddiy va ma'naviy yordam beradi. Bu hol uning taqdirida katta rol o'ynaydi. Onabibi ko'zi ojizligi sababli, keyinchalik igna bilan yoziladigan maxsus yozuvni ham a'lo darajada o'zlashtirgan. Ushbu yozuvda bimalol o'qigan va yozgan. Onabibi tirishqoq va zehnli qiz bo'lganidan 10–12 yoshlaridayoq xalq qo'shiqlarini va Navoiy, Mashrab, Ogahiylarning g'azallaridan ko'plarini yoddan ayta boshladi. O'zining yoqimli ovozi bilan to'y tomoshalarda kuylab, xalq orasida shuhrat qozondi. Onabibi Otajonova mashhur xonanda bo'lish bilan birga, iste'dodli shoira hamdir. U xalq qo'shiqlariga hamohang bo'lgan ko'plab terma va qo'shiqlar, dostonlardan parchalar ijod qildi hamda ularni zo'r mahorot bilan kuyga solib, xalq orasiga yoydi. Shoira ko'zi ojizligiga ishora qilib, o'ziga Ojiza taxallusini tanlaydi.

Ojiza Xiva shahrining Boqcha mahallasida yashab ijod etdi. Bu mahallada Madrahim Sheroziyning bo'lishi unga qo'l keldi. Bu yerda u Sheroziy bilan ijodiy hamkorlik qilish imkoniga ega bo'ldi. U shinavanda sifatida Madrahim Sheroziydan suvoralar va zamonaviy qo'shiqlar eshitishni yaxshi ko'rardi.

Ojiza ijodida erkin muhabbat mavzusi katta o'rinni egallagan. Uning bunday asarlari ko'proq lapar va yallalar shaklida ijod etilgan bo'lib, mazkur qo'shiqlar nihoyatda nafis, o'ynoqi va samimiydir.

Ojizaning she'rlari Xorazm xalq musiqalari, doston kuylari bilan chambarchas bog'langandir. Chunki, shoir xalq dostonlarini yoddan bilgan va ularni maromiga yetkazib kuylay olgan. Shoiraning ilk ijodi doston qo'shiqlarining kuchli ta'siri ostida shakllana borgan.

Ojiza 1923-yili Moskvada ochilgan Butun Rossiya «Qishloq xo'jalik ko'rgazmasi»da mashhur xonandalar Safo Mug'anniy, Madrahim Sheroziylar bilan birga qatnashib, o'zining jozibador san'atini namoyish etadi.

Ojizaning odamiyligi, yoshlarga nisbatan mehribonligi tufayli uning atrofiga juda ko'p yoshlar to'plandi. U vaqtini ayamay, shogirdlariga qo'shiqlar o'rgatar, garmon chalish sir-larini ko'rsatardi. Natijada, shogirdlar orasidan juda qobiliyatli mashhur xalfalar yetishib chiqdi. Jumladan, Onabibi Jumaniyozova (Onabibi qori), Roziyaxon Ahmedova (Roziya xalfa), Nazira Sobirova (Nazira xalfa), Ullibibi Boyjonova, Poshshaxon Matkarimova, O'g'iljon Jumaniyozova, Sorabibi Ahmedova, Nazira Boyjonova kabi o'nlab shogirdlar yetishtirgan. Shogirdlari ichida Nazirposhshaning umidli va istiqbolli ekanligini se-zgan Ojiza unga alohida e'tibor bera boshladi.

Ojiza 1951-yili Xiva shahrida vafot etgan. Ojiza haqida so'nggi yillarda, yozma adabiyotda, uning xizmatlarini, xislat-larini ta'riflovchi ko'plab doston va she'rlar ham yaratildi. Ojiza yaratgan xalfa qo'shiqlari hozirgi kunimizda ham yosh xalfalar, laparchi qizlarimiz tomonidan sevib ijro etib kelinmoqda. Ojiza yaratgan qo'shiqlar nomlariga bir qancha xalfachilik yo'nalishi bo'yicha ko'rik-tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda.

Guljonposhsha xalfa Yusupova

Xorazm xalfachilari orasida elga tanilgan xalfalardan yana biri Guljonposhsha xalfa Yusupova bo'ladi.

Guljonposhsha xalfa 1906-yilda Xiva shahrida Yusuf yasovulboshi oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Yusuf yasovulboshi o'z davrining ilmi kishilaridan bo'lgan. Onasi ham zamonasining savodli ayollaridan edi. Ana shunday ilg'or fikrli oilada tug'ilib, voyaga yetgan Guljonposhsha 5–6 yoshidan o'qishni, yozishni o'rgandi. Yoshligidanoq arab va lotin alifbosida bemalol o'qib o'z ilmini oshirgan.

Ilmga tashna Guljonposhsha Yusuf qizi ota-bobolari izidan borib, o'zi ham mustaqil ravishda «Qur'oni Karim», «Bibi Oysha», «Bibi mushkul kushod», Mashrab va Sofi Olloyor singari o'nlab arab alifbosida yozilgan eski o'zbek imlosidagi kitoblarni nafaqat o'qib o'rgandi, balki ularni o'z do'st-yorlari, shogirdlariga ham tarjima qilib berdi va shulardan nusxalar ko'chirib berib, insonlar qalbini ma'naviyat sarchashmasidan bahramand etib keldi.

Yoshligidan Guljonposhshaning mumtoz adabiyotga bo'lgan muhabbati juda baland edi. Hazrat Navoiy, Fuzuliy, Ogahiy she'rlarini sevib o'qigan va yoddan bilgan.

Guljonposhsha xalfa marosim va mavludlarda qatnashish bilan birga, insonlar qalbiga ham ezgulik urug'larini sochishda o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Guljonposhsha xalfa 1990-yilda Xivada vafot etdi.

Pardagul xalfa Kalandarova

Pardagul xalfa Xorazmning Gurlan tumanida, 1907-yilda tavallud topgan. Otasi Qo'chqorvoy ota san'atni yaxshi ko'rgan va o'zi ham dutorda kuylar chalgan. Farzandlarning tarbiyasiga katta e'tiborda bo'lganlar.

Pardagul xalfa 12 yoshida eski maktabni bitirgan. 14–16 yoshlaridan boshlab bazmlarda Pardagul xalfa «Go'ro'g'li», «Oshiq G'arib va Shohsanam» kabi dostonlarni o'qib, xotin-qizlar davrasida ma'rifat urug'ini sochgan. Ustozi Shukurjon xalfadan juda ko'p dostonlarni o'rgangan.

Pardagul xalfa 1988-yil vafot etgan.

Hozirgi kunimizda Remajon xalfa, Gulchehra xalfa, To'xta xalfa Bozorboyevalar ustozidan qolgan san'atni davom ettirib, xalq ichida ma'rifat tarqatib kelmoqdalar.

Nazira Sobir qizi (Nazira xalfa)
(1922–2001)

Nazira Sobir qizi, 1922-yilning 15-iyunida, Xiva shahrining Ichonqal'asida tavallud topgan. Otasi Sobir aka zargarlik bilan shug'ullangan. Ota-onasi uni Nazirposhsha deb atashar ekanlar. Nazirposhsha Xiva shahridagi Avaz O'tar maktabida o'qib yurgan paytlaridayoq san'at va adabiyot bilan qiziqardi. She'r va qo'shiqlarni yod olib, dugonalariga o'qib berar, goho xalfalarga taqlid qilib, xirgoyi qilib ham yurardi.



Baxtga qarshi 9-sinfga chiqqanida Nazirposhsha ko'z og'rig'iga duchor bo'lib, o'qishni davom ettira olmay qoldi. Uning taqdiri ham ustozi Onabibi qori taqdiriga o'xshab ketadi. O'qishdan qolgach, butun hayotini she'riyatga, qo'shiqchilikka baxshida etadi. Xalfalarni jon dili bilan tinglar, ular kuylagan nag'malarni o'zlashtirib olishga urinardi. Oqibatda, uning ovozi Ojizaga borib etdi. Nazirposhsha Ojizaning huzuriga borish va unga shogird bo'lish orzusida edi. Bu orzu uni Ojiza huzuriga yetaklab keldi.

Ojizadek nuroniy, taniqli va yuksak iste'dod egasiga shogird bo'lish baxtiga muyassar bo'lgan Nazirposhsha, ustozidan xalfachilik sirlarini qunt bilan o'rganishga astoydil kirishdi. U yangi-yangi she'r va qo'shiqlar yod olar, ba'zan ustoziga ergashib, bazimlarda unga jo'r bo'lardi. U Onabibi qori bunyod etgan ijodiy xazinasi durdonalaridan to'la bahramand bo'lib, soz (garmon) chalish, uning jo'rligida ijrochilik san'atining sirlarini ham mukammal o'rganib oldi.

Ojiza o'zining shinavandalariga: «Mendan dunyo o'tgandan keyin kim meni sog'insa, Nazirani o'qitib, eshitsin»⁵, degan

⁵ Madrahimov Z., Nurmetov S. Targ'uncha. – Urganch, 1999. – B. 7.

ekan. Nazirposhshaning xatti-harakatlari, odamlarga bo'lgan munosabatlari, garmon chalishi, qo'shiq aytish uslublari Ona-bibi qorining o'zginasi bo'lib turgandi. Shuning uchun ham, Nazir xalfa nomi bilan mashhur bo'lib ketdi. Ojiza o'z shogirdlariga juda qattiqqo'l va talabchan bo'lgan.

Nazirposhsha uzoq yillar ustozlari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatib yurdi. Keyinchalik ustozidan fотиha olib o'zi mustaqil ravishda ijodiy faoliyatini boshladi. Ustozlari o'zining garmonini unga sovg'a qilib berdi. U endi Nazir xalfa bo'ldi.

Nazir xalfa ham ustozlari kabi bir qancha shogirdlari chiqardi. U Nazir xalfa Boyjon qizi, Amina xalfa Quryoz qizi kabi iste'dodli shogirdlari yetishtirib chiqardi. Nazir Sobirova 2001-yil vafot etdi.

Nazir xalfaning qo'shiqlari shogirdlari tilidan tushmay to'ylarga, bayramlarga, yaxshi kunlarga fayz bag'ishlamoqda.

Safo Ollaberganov (Mug'anniy)

(1882–1940)

Xalq orasida Safo Mug'anniy nomi bilan mashhur bo'lgan taniqli sozanda, go'yanda, shoir Safo Mug'anniy Ollaberganov 1882-yilda Xorazmning Xiva shahriga yaqin Gandimiyon qishlog'ida, dehqon oilasida tug'ildi. 2 yoshida otasidan yetim qolgan bo'lg'usi san'atkor, o'gay ota, keyinchalik qarindoshlari qo'lida tarbiya topadi. Juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Boylar eshigida xizmat qildi.



U yoshligidan unib-o'sgan qishlog'ida xalq qo'shiqlarini va kuylarini eshitib katta bo'ldi. Eshitgan kuylari va qo'shiqlarini esida saqlab qolishga harakat qilardi. Safo Ollaberganovda shu tariqa musiqa san'atiga havas uyg'onadi. Bora-bora o'zining orombaxsh ovozi, yangroq sozi, yuraklarni to'qlantiruvchi kuy-qo'shiqlari bilan butun Xorazmda shuhrat qozo-

nadi. U garmon chalishni qunt bilan o'rganadi. Garmon chalishni Qo'sha ko'r va Qurbon otadan, tor chalishni Matyoqub podachidan, ashula aytishni Polli duzchidan, dostonlardan parchalar kuylashni Suvay va Jumanazar baxshilardan o'rganadi.

Safo Mug'anniy nihoyatda hozirjavob shoir va musiqachi edi. U Xorazm xalqining orzu-istaklarini o'z she'rlarida, qo'shiqlarida mujassam etdi.

Safo Mug'anniy o'zbek klassik musiqasini mukammal egalagan va uning rivojlanishiga hissa qo'shgan ustoz san'atkoridir. «Suvora», «Feruz», «Mustaxzod» kabi Xorazm xalq kuylari va aytimlari Safo Mug'anniy talqinida katta olqishlarga sazovor bo'lgan.

Komil Xorazmiydan ta'lim olgan. Sozandalik va xonandalik mahoratini oshirish bilan birga, ustozi ta'sirida she'rlar ham yozgan. Xorazm shoirlarining, shuningdek, o'zining she'rlariga kuy bastalagan. Safo Mug'anniyning bizga qadar yetib kelgan she'rlarida ma'rifatni ulug'lash, Xorazm ahlining nurli kelajigiga umid, yoshlarni millat va baxt-saodati yo'lida ishlashga, ilm olishga, Ona Vatanga muhabbat, tug'ilib o'sgan Vatanni sevishga bo'lgan da'vat ohanglari, uning ijrolarida, yalla-laparlarida, ohanglarida ustuvorlik qiladi. Bastakor, sozanda, shoir, jamoat arbobi, Mehnat Qahramoni (1936), XX asr boshlarida, maorif nozirligida Madaniyat boshqarmasi boshlig'i (1920–1922), yer-suv islohotini o'tkazish davrida yer sho'basi raisi (1925–1926), Urganch tumani ijroiya qo'mitasi raisi (1927–1928), Xorazm okrug teatrida rejissor (1929–1937) va ayni paytda, o'qituvchilik ham qilgan (1935–1937).

Ana shunday xalqparvar shoir, sozanda, asl san'at sohibi Safo Mug'anniy qatag'on qurboni bo'ldi. U 1940-yilda mustabid tuzumning lagerlarining birida vafot etgan.

Madrahim Yoqubov (Sheroziy)
(1890–1973)



Madrahim Yoqubov (Sheroziy) soz (garmon), dutor, rubob (tor) kabi musiqa asboblarning ajoyib ijrochisi, sozanda va ashulachi bo'lgan.

U 1890-yilda, Xiva shahrida tug'iladi. 7 yoshidan eskicha maktabda o'qib, savodini chiqaradi va klassik shoirlar kitoblarni o'qiy oladigan bo'ladi. U yoshligidan san'atga, ashulachilikka mehr qo'yadi. Ustozlari Qurji ota Avazmatovdan soz chalishni, Qurbon ota Ismoilovdan xalq qo'shiqlarni o'zlashtirib oladi. Polli duzchiga ham shogird tushib, undan klassik qo'shiqlarni, xususan, «Suvora» yo'llarini o'rgangan. 15–20 yoshlarida xalq orasida Sheroziy taxallusi bilan tanila boshlaydi. O'sha yillari Madrahim boshiga qo'y terisining «sheroziy» nusxasidan «dagalak cho'girma» (telpak-papoq) kiyib yurgani uchun uni Sherozi deb atay boshlaydilar. Keyinchalik Madrahim Sheroziy O'zbekistondagina emas, Qoraqalpog'iston va Turkmanistonda ham mashhur bo'lib ketadi.

1940-yilga kelib, Xiva teatri san'atkorlari vohaning barcha joylarida konsertlar qo'yishdi va ular ichida Madrahim Sheroziy ham bor edi.

Sheroziyning ijodiy faoliyati chinakam diqqatga sazovordir. Sheroziy qator qo'shiqlar, termalar yaratdi. Ular asosida yangi klassik qo'shiqlar, maqom va o'lmas kuylar yaratdi. Sheroziy ijodining xarakterli xususiyatlaridan biri uning novatorligidir. U rus musiqa asboblari garmonni o'zbek musiqa asboblari qatoriga dadillik bilan kiritdi. Hozirgi kunda «garmon» cholg'usi o'zbek xalqining, jumladan, Xorazm xalqining, ayniqsa, xalqchilik yo'nalishida ijod qilayotgan san'atkorlarning sevimli musiqa asbobi bo'lib qoldi.

Sheroziy Xorazm Davlat musiqali drama teatri asoschilaridan biridir. Madrahim Sheroziy Onajon Sobirova, Safo

Mug'anniy, Matyusuf Xarratov bilan tashkil etgan garmonchilar ansambli, so'nggi yarim asrda dunyoga kelgan barcha janrlardagi ansambllarga asos va poydevor bo'lgan. Sheroziyning Xorazm san'ati oldidagi xizmatlari yuksakdir. U tufayli garmonlar Xorazm ansambllaridan o'rin oldi.

Madrahim Sheroziy xalq kuylari va maqomlarining ikkinchi aytim yo'llarini mohir ijrochisigina bo'lib qolmadi, balki kuylarga va qo'shiq she'rlarga o'z hissasini qo'shib takomillashtirdi. Bu uning xalq qo'shiqlariga hamohang termalari, yalla-laparlari misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. U folklor namunalarini, xalq ashulalarini to'plash borasida katta ishlarni amalga oshirdi. U to'plagan va qayta ishlagan kuylardan, o'zbek san'atkorlari unumli hamda ijodiy foydalanyaptilar. Sheroziy qo'shiq san'atida o'z uslubiga ega. Sheroziyning xonandalikdagi ijro ohangi qochirimlarga boy va sho'x, o'ynoqi bo'lgan. Sheroziy o'lmas san'atini, talantini xalqimizning ezgu maqsadlariga, xalq xizmatiga sidqidildan safarbar eta olgan.

Uning san'at rivoji yo'lidagi xizmatlari munosib taqdirlandi. Respublika musiqa madaniyatini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1949-yili Madrahim Yoqubov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni bilan taqdirlandi. 1970-yili Sheroziy 80 yoshga to'lishi munosabati bilan unga O'zbekiston xalq artisti degan faxrli unvon berildi. Madrahim Yoqubov (Sheroziy) 1973-yili Urganch shahrida 83 yoshida vafot etdi. Uning nomi hozir ham, bundan keyin ham qadr-qimmat topaveradi. Sheroziy elga xolis xizmat qildi, o'z umrining davomini shogirdlarida deb bildi, hayotda o'z o'rnini topa olgan munosib farzandlar tarbiyaladi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Ojiza taxallusi bilan ijod qilgan xalfa kim?
2. Xorazmda ijod qilgan mashhur xalfalar kimlar?
3. Nazira Sobir qizi ijodi haqida nimalarni bilasiz.
4. Yakka xalfalar ijodi qanday?
5. Xonim suvchi taxallusi bilan ijod qilgan mashhur xalfa kim?

6. Anash xalfaning xalfachilik san'atidagi o'rni qahday?
7. Taniqli san'atkor Madrahim Shezoziyning ijod yo'li.
8. Safo Mug'anniy taxallusi bilan ijod qilgan san'atkor.
9. Xorazmda yashab ijod qilgan xalfalardan kimlarni bilasiz?

2.2. MUSIQA IJROCHILIGIDA XALFA QO'SHIQLARINI O'RGATISH USHLUBLARI

Xorazmda yashagan mashhur xalfalardan: Bibijon xalfa, Xonim xalfa, Oysha xalfa, Ojiza va Onajon xalfa, Guljonposhsha xalfa, Pardagul xalfa kabi san'atkorlar, keksalarning guvohlik berishlaricha, «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Asil va Karam», «Oshiq Alband», «Oshiq Mahmud» va «Go'ro'g'li» turkumiga oid ayrim dostonlarni tugal yoddan bilganlar va ularni xotin-qizlar davrasida maromiga yetkazib kuylaganlar. Bu dostonlarning kuchli ta'siri ularning o'zlari ijod qilgan aksariyat she'rlarida ham ko'zga yaqqol tashlanib turadi.

Musiqi darslarida talaba xalq qo'shiqlari, musiqa folklori va maxsus bolalar qo'shiqlarini o'rganadi. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarning ijro etish, kuylash ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga, zavqlanish, go'zallikni his etish kabi malakalarini takomillashtirishdir.

Yuqorida qayd etilganidek, musiqa folklori vositasida talabalarning estetik tarbiyasini takomillashtirish darajasi ularning egallagan bilimlarini tashkil etuvchi omillar orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda, o'qitish jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga, ularning estetik, axloqiy tarbiyasining takomillashtirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash hamda yoshlar ongiga an'analarimiz va milliy merosimizni singdirishga keng imkoniyatlar yaratilgan

bugungi kunda musiqa folklori namunalari, ya'ni xalq og'zaki ijodi hamda doston-qo'shiqlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Inson ma'naviyatini shakllantirishda xalq qo'shiqlarining ahamiyati katta. Xalfa qo'shiqlarida she'riyat, musiqa uslublari badiiy estetik vosita sifatida birlashib keladi. Xorazm xalfachilik uslubida, dostonlarida yuksak insoniy fazilatlar, falaffiy, diniy, axloqiy qarashlar kuylanib, muayyan xalqning urfodatlarini, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va maishiy turmush tarzi o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizga davlatimiz tomonidan bilim olishlari, ijod qilishlari uchun barcha sharoyitlar yaratilgan. Yoshlar tarbiyasi bugungi kunda har bir ota-ona, murabbiylarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, ayni paytda, O'zbekistonda yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash, yuqori malakali madaniyat xodimlari tayyorlash ishiga katta e'tibor berilmoqda. San'atga oshuftalik insonni yaxshilikka, go'zalliklar yaratishga, bunyodkorlik jabhalarida jasorat ko'rsatishga chorlaydi. Kuy, qo'shiq, raqs, umuman san'at bor ekan, bu muazzam dunyo zavqli va fayzlidir.

Betakror Xorazm xalfa qo'shiqlari avloddan avlodga o'tib, qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari hamda boshqa milliy bezaklarini tinglagan kishi unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklaydi.

Yakkaxon qo'shiqchilik

Dars o'tish murakkab va ijodiy mehnat jarayonidir. Ustoz talaba bilan dars o'tishni boshlaganda, avvalo, uyga berilgan vazifani talaba tomonidan xatoga yo'l qo'yilsa ham, uni to'xtatmasdan, oxirigacha eshitib olish maqsadga muvofiqdir. Talaba tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni ko'rsatish va tushuntirish ishlari berilgan qo'shiqni qayta ijro etish jarayonida bajariladi. Ustoz dars boshlashidan oldin, talabani

ovozini joziba baxsh etuvchi mashqlar bilan shug'ullanib, ovozni ijro uchun to'g'ri qo'yib olish mashqlarini olib borishi lozimdir. Talaba tomonidan aytilayotgan qo'shiqning so'zlarini o'z shevasida kuylash, uning so'zlarini tushunib, to'g'ri va tushunarli talaffuz etib kuylash talab etiladi. Ijro etilayotgan qo'shiqning usuliga tushib, uning mohiyatini tushunib, dars mobaynida qo'shiqning ritm usulini talabaga ustozning o'zi doira cholg'usida chalib ko'rsatishi va talabadan shu yo'sinda chalish talab etiladi.

Darsda qaysi faoliyat mashg'ulotida (tinglash, kuylash, ovoz sozlash, nota bilan kuylash va boshqalar) qo'llanilmasin, dars amaliyotida ijro qilinayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari haqida tushunchalar hosil bo'ladi.

Talabaning kasbiy tayyorgarligini aniqlab beruvchi fanlardan biri yakka qo'shiqchilik fanidir. Yakka tartibdagi ijrochiligi bilan bir qatorda, bu fanning maqsadlari talabalardan ijodiy kasbiy (erkinlik) iroda, madaniyat, zamonaviy usul va keng dunyoqarashining shakllantirishdan iborat.

Folklor yakka qo'shiqchilik, folklor musiqa ijrochilik, folklor ijrochilik mahorati fanlarini o'rganish natijasida, folklor ijrochilik uslublari, qo'shiq kuylash, folklor dasturlarini sahnalashtirish, ya'ni aktyorlik mahorati, ifoda va raqs harakati, sahna nutqi, ya'ni har bitta voqa, vodiyning o'ziga xos bo'lgan so'z o'yinlarini va shevalarini to'g'ri, tushunarli kuylash mahorati, ovozni to'g'ri yo'lga qo'yish kabi fanlar uzviy bog'liqlikda olib boriladi. Ijro ko'nikmalarini hosil qilishda talabalarining ovoz ishlatish uslublari, texnikasi, ohang bezaklarini qo'llash usullari, cholg'ularga tayanish va chiroyli ijro etish muhimdir.

O'qituvchi dars jarayonida diqqat-e'tiborni quyidagilarga qaratishi lozim:

- talabaning ovoz sadosi, ohangni eshitish qobiliyati, nafas ravonligi, ritm-usul;

- xonandalikka xos unsurlar – ovoz tebranishi, nola, qochirim;

- xotira, zehn, iqtidor;


- kuy va qo'shiq matnini tushunib kuylash, nutq ravonligi, diksiya.

Yangi o'qishga kelgan talabada nafas olish tushunchasi bo'lmashligi mumkin. O'qituvchi bu borada talaba bilan g'oyatda ehtiyotkorona ish olib borishi lozim. Nafas olish texnikasini qo'shiq ustidagi mashqlarga qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir. Mashqlar xalq og'zaki ijodining kuychan namunalari asosida amalga oshirilsa, talaba zerikmaydi va unda o'tilayotgan darsga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Odatda, folklor qo'shiqchiligidagi muhim omil, bu – uning tabiiyligini ifoda eta bilish va musiqiy asarni milliy bezaklar bilan ijro etishda. Bu borada, albatta, mutaxassis o'qituvchi talabalarga namuna tarzida jonli ijro etib, yangi asarni tanishtirib o'tishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayonida mutaxassslik o'qituvchilari folklor qo'shiqchilik ijrochiligida mavjud bo'lgan barcha milliy bezaklarni ovozda ko'rsata olishi va uni talabalarga singdira olishi muhim omillardan biridir. Masalan: qochirim, nola, usul, titrama kabi atamalar milliy ijrochiligimiz bezaklari bo'lib, ularni mohirlik bilan, har birini o'z xarakterida ijro etish ko'zda tutiladi. Usul musiqaning yurak urishi kabi boshqarib turadigan bir omil bo'lib, u boshqaruvchi, yetaklovchi sifatida xonandalik amaliyotida ahamiyatlidir. Dars jarayonida talabaga ijro etilayotgan qo'shiqni magnit tasmalaridagi ijroviy namunalarini eshittirish, ijroni tinglab bo'lgach, qo'shiqni talaba bilan yana mustahkamlab, talabaning fikrini ham tinglab, asarni to'ldirib borish darsni yana ham qiziqarli o'tishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, talabada darsga va ijroga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. O'quvchi-talabalarga ijodiy fikrlashni o'rgatish, hozirgi davr o'quv jarayonining eng samarali usuli bo'libgina qolmay, kelajagimiz bo'lmish yosh avlod oldidagi masalalar yechimini erkin topish qobiliyatiga ega bo'lgan, mustaqil fikrleydigan barkamol avlodni shakllantirishga zamin yaratgan bo'lamiz. Darsning maqsadi, talabaning ta'lim olishga bo'lgan xohishni, qiziqishini yanada oshirib, ularga fan asoslarini yanada chuqur o'rganish imkonini beradi.

Dars jarayonida sheva, xalq tilida kuylashni o'ziga xos yo'llari, qo'shiqchilik uslubining hududlarga xos bo'lgan xususiyatlarini talabalarga singdirish, xalqchil qo'shiqlar bilan bir



qatorda, yangi talqinda xalq musiqalariga bastalangan asarlarni ham talabalarga tanishtirib, o'rgatib borish lozimdir.

Ta'lim berishda jo'rnavez sozandalar (konsertmeyster) muhim o'rin tutadi. Jo'rnavez sozanda ham qo'shiqchi singari ijrochidir. Jo'rnaveznining vazifasi talaba bilan birgalikda, asar mohiyatini ochib berish va u bilan birgalikda, bir-birini to'ldirishdan iborat.



**O'zDSMI katta o'qituvchisi Umida Kurbanova
mashg'ulot paytida**

Jo'rnavez ijro davomida talabaga doimo musiqiy hamrohlik qilishi zarur. Bu yordam talabaning ijrochilik mahoratiga ijobiy ta'sir etadi, ijro asnosida o'ziga tayanch bo'ladi va o'zi kuylagan qo'shiqning yuksak darajaga olib chiqishiga ta'sir etadi.

Yangi avlod tarbiyasida xalq qadriyatlarini, avloddan avlodga o'tib kelayotgan musiqiy an'analarni asosiy zamin sifatida xizmat qilishi lozimdir. Ijrochilik amaliyotida shakllanib, xalqimiz nazariga tushgan va avlodlar tomonidan qabul qilinib, davom ettirilayotgan har bir uslub o'zining muayyan ijroviy an'analari bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, yangi avlod-

ning shakllanishi uchun ibratli saboq manbayi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xalq hayoti va uning yuksak ma'naviyatli turmushi bilan bog'liq an'analarini xonandalikni kasb etuvchi har bir yosh avlod, o'zining ruhiyati hamda ishtiyoqi asosida ularga mehr qo'yib, xonandalik ko'nikmalarini o'zlashtirishi muqarrardir.




Raqqosa qizlar



Raqqosa qizlar



**Xiva shaharidagi musiqa maktab bolalar folklor
jamoasi**



Xorazm folklor jamoasi

G'oyaviy tarbiya

Qo'shiqchilikning asosiy jamoatchilik vazifasi san'at vositalari orqali targ'ibot va tashviqot o'tkazishdir. Shuning uchun, o'qituvchining asosiy ishi har taraflama dunyo qarashi keng va siyosiy yetuk ijodkorni tarbiyalashdir.

Shu boisdan ham, xalq qo'shiqlarining asosiy xususiyati asar mazmunining xalq dunyoqarashiga mos kelishini ifodalash uslublarining o'ta soddaligi, ixchamligi kishilarning his-tuyg'ularini tarbiyalay olishi bilan xarakterlanadi. Inson ma'naviyatini shakllantirishda xalq qo'shiqlarining bir turi — xalq ma'naviy qadryatlarining o'zida mujassamlashtirgan dostonlarning ham ahamiyati katta. Dostonlarda folklor, musiqa, she'riyat, ijro uslublari badiiy-estetik vosita sifatida birlashib keladi. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar, falsafiy, diniy, axloqiy qarashlar kuylanib, muayyan xalqning urf-odatlarini hayotiy va maishiy turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Dostonlarning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati shundaki, ularda yuksak go'zallikka, baxt-soadatga erishishning yo'li maqsad sari

qat'iy intilishda, sabr, chidam, matonat, mardlik, qahramonlik ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, dostonlarda kuylanadigan muhabbat, muhim umuminsoniy qadriyat sifatida, insonning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan omil, insonni jasoratga undaydigan, ezgu fazilatlarini ro'yobga chiqaradigan vosita sifatida tarannum etiladi va talabani sadoqatli qahramonlar timsolida shu tuyg'uga ilhomlantiradi.

Musiqiy madaniyatni yuksaltirish barchaning muqaddas burchiga aylanishi kerak. Mustaqillikni mustahkamlovchi, asriy qadriyatlarimizga qanot bag'ishlovchi, istiqlol istiqbolini belgilovchi yoshlarning ma'naviy qiyofasini musiqiy madaniyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yoshlarning ma'naviy qiyofasi esa, an'anaviy o'quv-tarbiya hamda zamonaviy bilim olish jarayonlarini qo'shib olib borishni taqozo etadi. Shunga binoan, musiqa maktablari va bilim yurtlari jamoalarida kompyuterlardan foydalanish odat tusiga kirib bormoqda. Bu musiqiy dasturlarni faqat o'zlashtirish jarayonini yengillashtirib qolmasdan, balki uni tezlashtiradi. O'quv jarayonida ta'limning an'anaviy yo'llari bilan birga, yangi usullarga murojaat etish yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar

1. Yangi avlod tarbiyasida xalq qadriyatlarining roli qanday?
2. Davlatimiz tomonidan bilim olish uchun yoshlarga qanday sharoitlar yaratilgan?
3. Estetik tarbiya nima?
4. Misiqa ijrochiligida estetika va did tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
5. G'oyaviy tarbiya nima?
6. Dostonchilik san'atining tarbiyaviy ahamiyati.
7. G'oyaviy tarbiyaning o'rni va ahamiyati?
8. G'oyaviy tarbiyada xalq og'zaki ijodining o'rni qanday?
9. Yoshlarning ma'naviy qiyofasida xalq og'zaki ijodining o'rni va ahamiyati?

QO'LLANMAGA KIRITILGAN QO'SHIQLARGA QISQACHA SHARH

«**Muborak bo'lg'ay**». Bu yalla Onabibi Otajonova ijodiga mansub bo'lib, asosan to'y-hashamlarda, ya'ni nikoh to'ylarida xalfalar tomonidan ijro etiladi. Ojiza o'z ijro uslubida marosim qo'shiqlarini turkum shaklida ijro qilgan. 1-«O'nglar bo'lg'ay to'yingiz»; 2-«Muborak bo'lg'ay»; 3-«Aylanaman, galinni qaddi-bo'yinnan»; 4-«Xush galdingizlar». Bu yalla, 2-turkumga kiradi. «Muborak bo'lg'ay» atamasi she'rining mazmunidan kelib chiqqan. Bu yalla, asosan to'y qilayotgan xonadon sohib va sohibalariga, yaqin qarindoshlariga bag'ishlab ijro etiladi. Xalfalar to'y egalarini va kelin-kuyovni muborakbod etib kuy-laydilar. Hozirgi kunimizda ham xalfalar bu yallani yanada sayqallashtirib, go'zal ohanglarda, to'y-bazmlarda ijro etib kelmoqdalar. Yalla sho'x, jo'shqin, ufor usilida ijro etiladi. Yalla 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Anajondek dilbar johona galdi**». «Anajondek dilbar jahona galdi» – atamasi she'rning mazmunidan kelib chiqqan. Xorazm xalfa yo'llaridan bo'lgan bu qo'shiq xorazmlik mashhur xalfa Onajon Sobirova (Anash xalfa)ga bag'ishlab aytilgan bo'lib, ufor usulida, bir tekis ijro etiladi. Qo'shiqda «Xonimlardan avval huriyat oldi», deb ta'rif berilgan bo'lib, Xonimjon xalfa Said Ahmad qizi, Onajon Sobirovaning ustози bo'lgani va undan ta'lim olganligi aytib o'tiladi. Qo'shiqda Onajon xalfaga go'zal iboralar bilan o'xshatishlar, ta'riflar berib o'tilgan. Bu qo'shiq hozirgi paytda ham ayollar davrasida, xalfalar tomonidan ijro etib kelinmoqda. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Dig'ajon**» lapari – Xorazm xalq laparlaridan biri bo'lib, xalfalar ijodida keng o'rin egallagan. Laparning atamasi she'rining mazmunidan kelib chiqqan. Ufori usulida, tez, sho'x, jonli tarzda ijro etiladi. «Dig'ajon» – «Og'ajon», «Akajon» ma'nolarini bildirib, bu lapar hozirgi kunda ham yosh laparchi qizlarimiz va xalfalarimiz tomonidan kuylanib kelinmoqda. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Lachak**». Mazkur qo'shiq marosim qo'shiqlariga kirib, asosan Xorazmda «lachak to'yi» marosimida ijro etiladi. Bu

marosimga xalfalar taklif etiladi va bu tantanaga xursandchilik ulashish maqsadida qo'shiqlar «Qutlov», «Lachak», «Muborak bo'lg'ay» va sho'x yalla, laparlar ijro etishadi. Dur-diposhsha xalfa Ro'zmetova «Lachak» o'rashni quyidagicha ta'rif bergan edilar: «Qadimda ayollarimiz 1–2ta farzandli bo'lgandan keyin boshlariga lachak o'rashgan. Yillar o'tib, hozirgi davrimizda, bu an'ana davom etgan bo'lib, ayollarimiz 40–45 yoshda boshlariga lachak o'raydilar va ko'pchilik ayollar umrining oxiriga qadar o'rasalar, ba'zilar «lachak» marosimidan keyin yechib, olib qo'yadilar va yoshlari payg'ambar yoshiga yetganda, umrining oxirigacha o'rab yuradilar. Lachak o'raganda 5 metr oq dokani 7 qavat qilib, boshga bog'lanadi va katta lachak holatiga keladi, so'ngra kichik qiyqim ro'mollarni boshga o'ralgan lachak ustidan o'raladi. Sog'liqqa ham foydasi katta. Bosh shamollamaydi, tomoq og'rig'i ham bo'lmaydi», – degan tushunchalarini berib o'tganlar. Hozirgi kunimizda «lachak to'yi» 63 yoshda, ya'ni payg'ambar yoshida berilmoqda. Bu marosimda faqat ayollar qatnashadi. Bu «lachak to'yi»ga xalfalar taklif etiladi va bu bazmda o'zlarining sho'x yalla-laparlari bilan ayollarni xursand etadilar hamda shu marosimga bag'ishlab «lachak» qo'shig'ini ijro etadilar. 6/8 olcho-vida yozilgan.

«Arka qizlar». Xorazm shevasida «arka» adabiy tilimizda «erka» ma'nosini bildirib, «erkatoy qizlar», ya'ni «arka qizlar» deb ataluvchi bu yalla Onabibi Otajon qizi (Ojiza) ijodiga mansub. Xorazm to'ylarida xalfalarimiz to'y berayotgan xonadon qarindoshlariga qarata ijro etiladi. Yalla sho'x, o'ynoqi va ohangdorligi bilan ajralib turadi. To'ylarda, yig'inlarda xalfalar bu yalla bilan xonadon egalarini xushnud etib, xalqning ko'nglidan joy olib, elimizning quvonchiga sherik bo'lib, o'zlarining yaxshi niyatlarini izhor etib, kuylab kelishmoqda.

«O'lguncha sizni derman». Xorazm xalq musiqa ijrochiligida ushbu qo'shiq alohida e'tibor bilan kuylanib kelinadi. Uning o'ziga xos mazmuni va ohang mazmunining go'zal tarovati tinglovchilarni o'z domiga tortadi. Bu qo'shiqning so'zi va musiqasi ham Ojiza, ya'ni Onabibi Otajonova ijodiga mansubdir. Asarning matni va musiqiy ohanglarda erkin muhabbat

mavzusi, lirik qahramon, sevganiga o'z sadoqati haqida aniqlik va xalqqa xos iboralar bilan ifoda etilgan. Qo'shiq lirik-o'ynoqi xarakterga ega bo'lib, o'rtacha tezlikda ijro etiladi. Ijro jarayonida qo'shiqning so'z va ohang uyg'unligiga e'tiborni qaratish lozim.

«**Tuninay**», ya'ni, tunov kun, o'tgan kun ma'nosini bildiradi. Qo'shiq Ojiza ijodiga mansub. Bu qo'shiqda yoridan aldangani va arazlagani haqida kuylanadi. O'tgan kuni arazlagani, yoriga bo'lgan muhabbati qo'shiqda ifoda etilgan. Qo'shiq mashhur xonandamiz, ustoz san'atkorimiz Kommuna Ismoilova ijrolarida elga mashhur bo'lgan. Qo'shiqning vazmin ufor usulida ijro etilishi unga salobatli xarakter beradi. Shu bois, xalqimizning katta-katta tantanalarida Xorazm vohasining xarakterli qo'shig'i sifatida ijro etib kelinadi. Ijro jarayonida xonanda qo'shiqni mazmunidan kelib chiqqan holda, asl holatida ijro etishi maqsadga muvofiqdir. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Qoshing qora – qora go'z**». Bu qo'shiq Xorazmda hozirgi kunimizda ham san'atkorlarimiz tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Xalfachilik yo'nalishida ham xalfalirimiz bu qo'shiqni o'z ijro uslublari kiritib, unga o'zgacha ohang, nola, qochirim, rang-baranglik va qo'shiq matnini yanada boyitib ijro etishmoqda. Qo'shiq o'zining soddalik, ravonlik, jarangdorlik, sho'x, o'ynoqilik kabi ijro uslublari bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qo'shiqning atamasi she'rning mazmunidan kelib chiqqan. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Jo'jjim aytaman**». Xorazm xalq qo'shiqlaridan bo'lib, «Jo'jjim aytaman» – «Seni ko'zim deb aytaman» yoki «Ko'zimday ardoqlay» degan erkalatish ma'nosida bo'lib, qo'shiqning nomi she'rning so'zidan kelib chiqqan. Qo'shiq ufor usulida ijro etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Qaydadir bilmam dildorim**». Bu lapar Xorazmning mashhur laparlaridan biri bo'lib, xalq so'zi, «Ro'molim bor» kuyi asosida ishlangan. Bu lapar ham o'z davrida ayol san'atkorlar va oddiy xalq ichida mashhur bo'lgan laparlardan. Lapar o'zining sho'x, o'ynoqi xususiyatlari bilan eshituvchini o'ziga rom etadi. Laparda sevgi, muhabbat tarannum etiladi. Lapar raqsga tushib ijro etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Pardevol**». «Sinch yupqa devor» ma'nosini anglatadi. Bu qo'shiq sho'x xususiyatli va o'ynoqi xarakterga ega bo'lib, Xorazm xalq laparlaridan biridir. Qo'shiqda sevgi, yorning hijroni, dardi, iztiroblari tarannum etiladi. Qo'shiq ufor usulida ijro qilinadi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Uyolaman**». Xorazmning mashhur xalfasi Onabibi qoriy (Ojiza) yo'llaridan bo'lib, lapar o'z davrida, san'atkorni xalqimiz orasida yana ham mashhur bo'lishiga sababchi bo'lgan ijod namunalaridan biridir. Ojizaning ijodida erkin muhabbat mavzusi salmoqli o'rinni egallaydi. Ijodkor lapar so'zlarini xalqqa xos iboralar orqali juda nozik, o'ynoqi, mazmundor misralarda ifoda etgan va zo'r mahorat bilan kuyga solgan. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Targ'uncha**». «Toza ochilgan g'uncha» ma'nosini bildiradi. Aslida «Gulg'uncha» deganidir. Uning matni va ohangidagi asosiy mazmuni ham aynan yangi ochilajak gulg'unchani (ya'ni, bo'lajak yorning go'zalligi, aqlliligi, ibosi, hayosi, odobi, tarbiyasi kabi jihatlarni) ifoda etishga bag'ishlangan. Qo'shiq Ojiza ijodiga mansub bo'lib, hozirgi kunda ham xalfalar tomonidan sevib ijro etilmoqda.

«**Oxtaraman**» – Xorazm xalq lapar yo'llaridan. Lapar 1985–1995-yillarda elga manzur bo'lgan. Bu laparni xorazmlik ko'pgina ayol san'atkorlar, xalfalar ijro etganlar, shulardan Xorazm san'atida o'ziga xos o'rniga ega va folklor san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shgan san'atkor Tozagul O'razboyeva bu laparni o'z ijrosi bilan yanada mashhur bo'lishida, xalqimiz ko'nglidan joy egallashida san'atkorimizning xizmatlari kattadir. Lapar hozirgi kunimizda ham yosh san'atkorlarimiz, xalfalarimiz tomonidan ijro etib kelinmoqda. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Ey mehribonim**». Bu lapar M.Xarratov (Chokar) so'zi va musiqasi bo'lib, ohangi sho'x, ufor usulida, lapar yo'lga asoslanib ijod qilingan. Lapar 1936–1950-yillarda xalq artisti Tamaraxonim ijrosida elga manzur bo'lgan. Lapar hozirgi kunimizda, oradan shuncha yillar o'tsa ham, yosh xalfalarimiz, san'atkor qizlarimiz tomonidan yana ham sayqallashtirilib, ijro etib kelinmoqda. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Ro'molim bor**». Ushbu namuna, eski Xorazm xalq laparlamasidir. Lirik xarakterga ega bo'lgan ushbu asar xotin-qizlar tomonidan ijro etilib kelingan. O'zining sadoqatli mazmuniga egaligi bilan xalq orasida ommalashgan va hozirgi davrlargacha ijrochilar tomonidan sevib, kuylanib kelinadi. Bu qo'shiq 1930-yillardan boshlab ayollar tomonidan sevib kuylangan. Qo'shiqda qizning yoriga bo'lgan muhabbati tarannum etilgan. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**O'rama-o'rama**» – Xorazm xalq qo'shiqlaridan bo'lib, bu qo'shiqni Ravshan Yunusov «garmon» cholg'usiga moslashtirgan. Qo'shiqning matni qo'shiq she'rining mazmunidan kelib chiqqan. Ijrodagi soddalik, ravonlik va vazmin ufor usulida ijro etilishi xonandaga ijro etishida qiyinchilik tug'dirmaydi. Xonandalar, ayniqsa, so'z talaffuzining aniqliklariga, ohang bezaklarini qo'llash usullariga e'tibor berishlari va chiroyli ijro etishlari juda muhimdir. Bu qo'shiqni nafaqat xalfalarimiz, balki erkak san'atkorlarimiz ham ijro etib kelishmoqda. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Og'a darom**». Boy, badavlat, ya'ni daromadli og'a degan ma'noni bildiradi. Xorazm xalq laparlaridan bo'lib, ufor usulida ijro etiladi. Bu laparda ishbilarmon, tadbirkor, uddaburon oshiq yigit tasvirida, olqishlab ijro etiladi. Qo'shiq hozirgi kunda ham folklor jamoalari tomonidan ijro etib kelinmoqda. Qo'shiqni turli variantlarda kuylash mumkin. Ya'ni, yakka holda, jo'rovoqlikda (ikkita, uchta va to'rtta) hamda ansambl ijrosidagi talqin etish mumkin. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Xurshidi jahon galdi**». Ushbu qo'shiqning xalq orasida bir necha variantlari mavjud. Asosan, to'y marosimlarida, kelin kelish vaqtida ijro etiladi. Ushbu variant Ojizaning ijro yo'liga mansub bo'lib, xalq orasida keng ommalashgan. Sababi, kelayotgan mehmonni, ya'ni kelinni quyoshga qiyoslab hurmatlaydi. Nur taratib, yaxshi niyatlar va orzu-maqсад bilan kelgan kelinning xush qadamini qadrlaydi. Chunki, har qanday kelin xonadoniga qut-baraka, tinchlik-omonlik olib kelishini xalqimiz tomonidan niyat qilinadi. Sho'xchan-o'ynoqi xarakterga mansub bo'lgan ushbu qo'shiq hozirgi davrda ham xalqimiz tomonidan keng kuylanilib kelinadi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Galmadi-galmadi**». Nafaqat Xorazm vohasi, balki respublikamizning boshqa vohalarida ham keng ommalashgan ushbu qo'shiq o'zining jozibaliligi bilan mashhurdir. Qo'shiqning o'ziga tortadigan ohang siri mavjud. Ibrochi qalban his etgan holda qo'shiqni erkalatib ijro etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu qo'shiq ham Ojiza ijodiga mansubdir. Qo'shiq matnida muhabbat, sevgi, mazmundor misralarda ifoda etiladi. Qo'shiq o'rta-cha ufor usulida, salobatli su'ratda ijro etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Olti xalfa**». Ushbu qo'shiq Xorazmda faoliyat olib borib, elga tanilgan olti xalfalarning ijodiga ishora sifatida qiyosiy ijro shaklida yaratilgan. Uning negizida kuylovchi qo'shiqchi - olti xalfalarning ijrosini nazira uslubida, o'xshatib ijro etishi ko'zda tutilgan. Unda eng muhimi xalfalarning ijrosiga taqlidiy munosabatda bo'lishdir. Bu qo'shiqning asl mohiyatini xalfalar ijodini yaxshi bilgan ijrochilar ochib beradi. Qo'shiqning yana bir jihati, unda hazil-mutoyiba shaklidagi munosabat ham o'rin olgan. Iloji boricha qo'shiqni qiziqarli harakatlardan bilan ijro etish maqsadga muvofiqdir. O. Rahimov bu qo'shiqning musiqasini chiroyli ohanglar bilan yana ham sayqallashtirib garmonga moslashtirgan. Qo'shiq ufor usulida ijro etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Xush galdingizlar**». Ojiza ijodiga mansub bo'lib, to'y-marosim qo'shiqlarining 4-turkumiga kiradi. Muayyan voqeelikni ifoda etib, to'yga kelgan mehmonlarga qarata aytilgan qo'shiq. Odatda, bu qo'shiq «Javob endi sizga aziz mehmonlar» so'zi bilan boshlanadi. To'y tugagandan so'ng, qo'shiq tinglash uchun shina-avandalar yana xalfalardan qo'shiq kuy-lashini so'rab, to'ydin keyin kichkina bazm uyushtirib, o'zlariga manzur bo'lgan qo'shiqlarni so'rab tinglashadi. Xalfalar davra oxirida «Xush galdingizlar» qo'shig'ini ijro etib, bazmni yakunlashlariga ishora tarzida ijro qilganlar. Qo'shiq yumshoq, hurmat bilan kuy-lanadi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Gul o'g'lon**». Xorazm xalq laparlaridan bo'lib, bu laparni erkak xonandalarimiz ham o'z ijro dasturlariga kiritganlar va kuylab kelmoqdalar. Bu lapar avlod-dan avlodga yod bo'lib, har bir satri tinglovchi yuragida o'chmas iz qoldiradi. Lapar sho'x,

ufor usulida ijro etiladi. Xalfa qizlarimiz bu qo'shiqni raqsga oshib ijro etadilar. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Olma galdi, nor galibdi deyдилar**». Bu qo'shiqning bastakori Matniyoz Yusupov bo'lib, qo'shiq jo'shqin, sho'x, ufor usulida ijro etiladi. Qo'shiqni erkak xonandalarimiz ham kuylashmoqda. Qo'shiqda ahidiga vafu, Vatanga muhabbat, bostlik, tinchlik, obodlik tarannum etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Og'ajon omon-omon**». Xorazm xalq qo'shiqlaridan bo'lib, R. Yunusov garmonga moslashtirgan. Xalfalar ijodida bu qo'shiq sevib ijro qilinib kelinmoqda. Qo'shiqning nomi she'rning mazmunidan kelib chiqqan. O'ziga xos sho'xchanligi, jozibali ijro yo'li, bilan eshituvchini o'ziga jalb etadi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Qaydin galding**» doston kuylari asosida 1950-yillarda yaratilgan. «Bahrom va Gulandom» dostonidan bo'lib, o'z davrida mashhur bo'lgan yallalardandir. Yallani baxshilar ham kuylashgan. Xalfalar ijodida bu yalla o'zining ohanglarining o'ynoqiligi, jarangdorligi bilan ajralib turadi. Yalla hozirgi kuni-mizda ham xalfalar tomonidan sevib ijro etilmoqda. Yalla ufor usulida ijro etiladi. 6/8 o'lchovida yozilgan.

«**Beshik ashulasi**». Xalq so'zi va musiqasi bo'lib, eski xalq qo'shiqlaridan. Qo'shiq yangi tug'ilgan chaqaloqqa bag'ishlab kuy lanadi. Qo'shiqda go'dakni erkalab «aylonsin» so'zi she'rning har qatorida takrorlanib keladi. 3/8 o'lchovida yozilgan.

«**Qo'sha-Qo'sha**». Qo'shiq musiqasini Muhammad Otajonov bastalagan, so'zi xalqnik i. Qo'shiqda qadimiy shahar — Xiva tarannum etiladi. Yurtga, Vatanga bo'lgan muhabbat chiroyli o'xshatishlar bilan talqin etiladi. Ufor usulida ijro etiladi.

«**Sangar**». Xorazm xalq qo'shig'i, R. Yunusov garmonga moslashtirgan. «Sangar» Xivadagi mahallaning nomi bo'lib, shu mahalla qo'shiqda o'ziga xos o'xshatishlar bilan ijro etiladi. Qo'shiqni xalfalar va erkak san'atkorlarimiz ham ijro etishgan. 4/4 o'lchovida yozilgan.

«**Kopida birovla durg'on o'xshidi**». Xorazm lapar qo'shiqlaridan. R. Yunusov garmonga moslashtirgan. Xalfalar

repertuaridan keng o'rin olgan qo'shqlardan. Hozirgi davr
mizda ham xalfalarimiz bu qo'shiqni xalqimizning yaxshi kun
larida ijro etib kelmoqdalar. Musiqasi o'rtacha tezlikda ijro eti
ladi. Qo'shiq ufor usulida, 6/8 o'lchovida yozilgan.

«Qizil gul bo'lmag'ay adim». Bu qo'shiq Xorazm lapar qo'
shiqlaridan bo'lib, R. Yunusov garmonga moslashtirgan. Ko'p
gina yosh xalfalarimiz bu qo'shiqni garmon chalib kuylash
moqda. Qo'shiq vazmin, g'amgin tarzda ijro etiladi. 4/2 o'lcho
vida yozilgan.

MUBORAK BO'LG'AY

Yumshoq, erkalab

O'qiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Mu-bo-rak-lar bo'l-g'ay at-gan to'-yin-giz.

Juft pa-tik-li ko'sh-k-u ay-von jo-yin-giz. Mu-do-ma iz - zat-da o't-gay um-rin-giz (ey).

Bosh-la-gan to' - yin-giz mu-bo-rak bo'l-g'ay. Bosh-la-gan to' - yin-giz mu-bo-rak bo'l-g'ay.

Muboraklar bo'lg'ay atgan to'yingiz,
Juft patikli ko'shk-u ayvon joyingiz.
Mudoma izzatda o'tgay umringiz,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lg'ay.

O'zim bilib, galdim to'y bo'lmoqini,
Xaloyiq hammasi yig'ilmoqini.
Qarindoshlar xizmatda durmoqini,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lg'ay.

Bog'a girib, qizil gulla tergaysiz,
Galin elib, axtiq-cho'vliq ko'rgaysiz.
Uzunina davr-u davron surgaysiz,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lg'ay.

Ayvoninda oq-o'tovlar qurilgan,
Duynikina ipak eli yozilg'ay.
To'rt yoningda o'g'il-qizing o'ynagay,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lg'ay.

Uyinga qarasam, go'zzim qamashar,
O'rganishgan joyda davronim doshar.
Har ish atib, murod atsang yarashar,
Boshlagan to'yingiz muborak bo'lg'ay.
Shu joylarda to'yla muborak bo'lg'ay.

To'yla – to'ylar. Bog'a girib, qizil gulla tergaysiz – bog'ga kirib, qizil gullar tergaysiz.
Galin elib, axtiq-cho'vliq go'rgaysiz – kelin olib, nevara-chevara ko'rgaysiz.
Uzunina – uzuniga. Galdim – keldim. Durmoqini – turishini, Duynikina – tuynukiga,
Go'zzim – ko'zim.

ANAJONDIN DILBAR JAHONA GALDI

Bir tekis

Xorazm xalq qo'shiqi

O. Rahimov garmonga moslashtirgan



Ey yo-ron-lar a sil hi-ko - ya ay lay, A-jo - yib bir a-yol du-nyo - g'a galdi.

In-son-li - gin ham-ma - dan bu - run ang - lab, Ya - na jon-din

dil - bar ja-ho - na gal - di, Xo-nim-lar-dan av-val hur - ri - yat ol - di.

Ey yoronlar asil hikoya aytay,
Ajoyib bir ayol dunyog'a galdi.
Insonligin hammadan burun anglab,
Yana jondin dilbar jahona galdi,
Xonimlardan avval hurriyat oldi.

Labinda xoli bor doridan kichchi,
Izina tushibdi ullidan kichchi.
So'zlagan so'zlari boldan ham suji,
Anajondin dilbar jahona galdi,
Xonimlardan avval hurriyat oldi.

Anajonni xotin-qizlar topadi,
U galganda shirin so'zlar topadi,
Yangi zamon mahsulini o'tirdi,
Anajondin dilbar jahona galdi,
Xonimlardan avval hurriyat oldi.

Anajonni har na ilm qoshida,
Siyo zulfi o'rim-o'rim boshida.
Saksana girsam ham o'n besh yoshinda,
Anajondin dilbar jahona galdi,
Xonimlardan avval hurriyat oldi.

Anajonni Nurlaboydan galishi,
Oyoqina dor bo'libdi ko'vishi.
Davralarda qah-qah urib gulishi,
Anajondin dilbar jahona galdi,
Xonimlardan avval hurriyat oldi.

Qo'shiq xalfa Onajon Sobirovga bag'ishlangan.
Xonim - mashhur Xonim xalfa suvchi Said Ahmad qizi kuzda tug'ilgan.
Galdi - keldi. Galishi - kelishi. Doridan - o'simlik nomi! tortiq! Ko'vishi - kalishi.
Giyibdi - kiyibdi.

DIG'AJON

Bir tekis

Xorazm xalq qo'shig'i



A-ka o-tin-giz

uch yo-shar. Dar-yo - lar to' - lib do-shar. Yo-rim gal-min qol-gan-da, (ey)

Go'z-lar - dan yosh - lar o - qar. Di - g'a - di - g'a

di - g'a - jon, Bi - kan - giz bo' - lin o - g'a - jon.

Aka otingiz uch yoshar,
Daryolar to'lib doshar,
Yorim galmin qolganda,
Go'zlardan yoshlar oqar.

Dig'a-dig'a dig'ajon,
Bikangiz bo'lin og'ajon.

Osmonni yulduziman,
Yoqangni qunduziman.
Manga ko'p ozor bermang,
Anamni yolg'iziman.

Dig'a-dig'a dig'ajon,
Bikangiz bo'lin og'ajon.


Chiqdim dog'ni boshina,
Yorginamni qoshina.
Yorimni rami galmas,
Go'zdan oqqan yoshima.

Dig'a-dig'a dig'ajon,
Bikangiz bo'lin og'ajon.

LACHAK

Shoshmasdan

Xorazm xalq qo'shig'i



O-nang-dan me - ro - sing la - chak Qiz cho - g'ing-da os - ding ga - jak. En - di yosh cho -

g'ing o' - ta - jak, to'p-ping-ni eg - ri qo'y - ma - gin. To'p-ping-ni eg - ri qo'y - sang qo'y.

La - chak-ni eg - ri qo'y - ma - gin. La - chak-ni eg - ri qo'y - ma - gin.

Onangdan merosing lachak,
Qiz chog'ingda osding gajak.
Endi yosh chog'ing o'tajak,
To'ppingni egri qo'ymagin,
To'ppingni egri qo'ysang, qo'y,
Lachakni egri qo'ymagin.

Boshinga o'ragan chog'i,
Yerga sudralar sachvog'i.
Lachakdir o'tmishni yodi,
To'ppingni egri qo'ymagin,
To'ppingni egri qo'ysang, qo'y,
Lachakni egri qo'ymagin.

Og'irligi qursin malol,
Yelkangni hech qoqmas shamol.
So'lmasin guldayin jamol,
To'ppingni egri qo'ymagin,
To'ppingni egri qo'ysang, qo'y,
Lachakni egri qo'ymagin.

ARKA QIZLAR

Jonli, sho'x

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan



Arka qizlar chaqqonlashib galinglar,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Bu to'ylarda yaxshi xizmat atinglar,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Xamma go'rsin to'yni tomoshasini.

Qarindosh-do'g'g'olar atinglar xizmat,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Dunyoda bo'lgaysin sog'-u salomat,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Galyan go'rsin to'yni tomoshasini.

Arka qizlar qizil guldin ochilsin,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Kaboblar pishirib, sharob ichilsin,
Go'rali bu to'yni tomoshasini,
Hamma go'rsin to'yni tomoshasini.

Galinglar – kelinglar. Go'rali – ko'raylik. Atinglar – qilinglar.
Galyan ko'rsin – kelgan ko'rsin. Arka – erka.

O'LGUNCHA SIZNI DERMAN

O'rtacha tez

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

The musical score is written for a melodic instrument like a garmonga. It consists of four staves of music. The first staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#), with a common time signature 'C'. The melody is composed of eighth and sixteenth notes. The second staff continues the melody. The third staff introduces a bass line with eighth notes. The fourth staff continues the melody. The lyrics are written below the staves, aligned with the notes.

Dil-bar bu ja - hon chel - ra
o'l - gun - cha siz - ni der - man. Um - rim ni gu - li to - za so'l - gun - cha siz - ni der - man
Bo'y - ni - ma qi - lich gal - sa kes - gun - cha siz - ni der - man.
Ko'ng - lin - giz - ga ma - lol ol - mang o'l - gun - cha siz - ni der - man

Dilbar bu jahon ichra o'lguncha sizni derman,
Umrinni guli toza so'lguncha sizni derman.
Bo'ynima qilich galsa, kesguncha sizni derman,
Ko'nglingizga malol olmang, o'lguncha sizni derman.

Orzima quloq solgil ongshir mani dodimni,
Ko'yingda bo'lsa, zavqing bar indi murodimni
Hamalani tark etdim ko'y endi uyotingni,
Ko'nglingizga malol olmang, o'lguncha sizni derman.
Ixtiyor o'zingizda ko'yingcha sizni derman.

Ko'nglim uza bilmiman ul sho'xi sitamgardan,
O'lguncha umidim bor ul lablari shakardan.
Go'zzima go'rinib a'lo ul barcha parilardan,
Ko'nglingizga malol olmang, mudoma sizni derman.

Shod vatanni bog'inda, shodlik bilan yurgaymiz,
Qo'lni-qo'lga barishib, qizil gullar tergaymiz.
Sendan umid kutadi, bu telba g'arib Ojiz,
Ko'nglingizga malol olmang, o'lguncha sizni derman.

Ko'yingda – ko'nglingda. Go'zzima gorinib – ko'zimga ko'rinib.

TUNINAY

Yumshoq, erkalab

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Bir dil-ba-ri zo -

lim, Bir dil-ba-ri zo - lim ma-ni yig' - lat-di tu - ni - nay,

Muj - gon o'qi-ni ko'k-sim a-ro ot-di tu - ni - nay. Av -

val-dan a-di av - val-dan a-di har-na-ki si - rim an-ga o - golt, Ag' - yor so'-zi bi -

lan man-ga sir och-di tu - ni - nay. af - ay.

Bir dilbari zolim mani yig'latdi, tuninay,
Mujg'on o'qini ko'ksim aro otdi, tuninay.
Avvaldan adi harnaki sirim anga ogoh,
Ag'yor so'zi bilan manga sir ochdi, tuninay.

Ayb atmingiz do'stlar, bu emas erdi umidim,
Ul arkalik aylab, manga qor atdi, tuninay,
Bor erdi mani yonimda bir ko'na qadrdon,
Bir necha muloyim so'zini aytdi, tuninay.


Maqsudini ber ko'na qadrdonini endi,
Bir necha suxanlar birla aldatdi, tuninay,
Sabr ayla dedi, behudaga yig'lama, Ojiz,
Ul arkalik aylab, manga qor atdi, tuninay.

Tuninay – tunov kun. Adi – edi. Ko'na – ko'hna. Qar atdi – arazladi.

QOSHING QORA – QORA GO'Z

Quvnoq, sho'xchan

Ojiza so'zi va musiqasi
B. Madrimov notaga olgan



Qo-shing qo-ra qo-ra go'z, Biz to-mo-na qi-yo boq.



Go'z-zing su-zib noz bi-lan, Go'z-zing su-zib noz bi-lan.



Biz to-mo-na qi-yo boq, Biz to-mo-na qi-yo boq.

Qoshing qora – qora go'z,
Biz tomona qiyo boq.
Go'zzing suzib noz bilan,
Biz tomona qiyo boq.

Xorazmni yo'llari,
Ochilibdi gullari.
O'ynamoqa yorashadi,
Xorazmni qizlari.

Kiyganingiz oq ekan,
Sevganingiz yo'q ekan.
Oshiqlikni dardini,
Bilganingiz yo'q ekan.

Gecha-gunduz xayolim,
Sensiz yo'qdir qarorim.
O'zingsan sevar yorim,
Man tomona qiyo boq.

JO'JJIM AYTAMAN

Shoshmasdan, noz bilan

Xorazm xalq qo'shig'i

O-shiq-man qo - ra ko'-zing-ga. Sha-kar - dan shi - rin so'-zing-ga Gu - lib gur g'on
oy yu - zing-ga Man san - dan ay - lan-san ga-rak Vo - xa shun - ga
jo'j - jim ay - ta - man vo - xa shun - ga jo'j - jim ay - ta - man.

Oshiqman qora ko'zingga,
Shakardan shirin so'zingga.
Zafarondek oy yuzingga,
Man sandan aylansam garak.

Uying uyimni yoninda,
Qolibman ishqni kominda.
Shul xo'jikni ayyominda,
Man sandan aylansam garak.

Qora parang bug'doy mayiz,
Hech yerda yo'qdir dangingiz.
Go'z yoshlarim bo'ldi dengiz,
Man sandan aylansam garak.


Avvalo, do'st tutib bo'lmas,
Do'stni hech unutib bo'lmas.
Qizil gulni sotib bo'lmas,
Man sandan aylansam garak.

Jo'jjim aytaman – ko'zim aytaman, erkanish ma'nosida. Xo'jikni – yigitni.

QAYDADIR BILMAM DILDORIM

Sho'x, o'noqi

Xorazm xalq qo'shig'i




O-shiq a-dim man bir yo - ra. Ax-ta-rib chiq-dim



gul-zo - ra. Va'da-si-da dur-mas-dan yo-ray, Ax-la-di ma-ni o-zo - ra.



Qay-da-dur bil-mam dil-do - rim ay, Aq-lim ol-gan se - var yo - rim.



Qay-da-dur bil-man dil-do - rim ay, Aq-lim ol-gan se - var yo - rim.

Oshiq adim man bir yora,
Axtarib chiqdim gulzora,
Va'dasida durmasdan,
Ayladi mani ovvora.

Qaydadur bilimam dildorim,
Aqlim olgan sevar yorim.

Gulzor qo'ymayin axtardim,
Izlab har tomona bordim,
Hech qayerdan topolmasdan,
Hijronda qolib qiynaldim.

Qaydadur bilimam dildorim,
Aqlim olgan sevar yorim.

Bilmadim getmish qayona.
Ayladi mani ovvora,
Har tomona nazar tashlab,
Topmadim yordin nishona.

Qaydadur bilimam dildorim,
Aqlim olgan sevar yorim.

Adim – edim. Durmasdan – turmasdan. Getmish – ketmish.

PAR DEVOL

♩ = 108



Pardevola, pardevol,
Pardevolning gardi bor.
Yaxshi ko'rgan yorimning
Yuragida dardi bor.

Qoshing qorami, qondim.
San so'zlama man yondim.
Izingda xushtoring bor,
Malomatga man qoldim.

Hovuz bo'yida jiyda,
Jiydaning guli mayda.
Hammaning yori uyda,
Bizning darbadar nerda.

UYOLAMAN

Shoshmasdan, tekis

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garinonga moslashtirgan

Ul uch-ri - bo - nim

ul yo - ri jo - nim Ul uch-ri - bo - nim Ul yo - ri jo - nim O-xu fi-g'o

im ma-ni bil - ma - di har-giz. O - xu fi - g'o - nim ma-ni

bil - ma-di har-giz. O-xim dar - di-ni ko'k-sim o' - ti - ni

ko'k-sim o' - ti - ni Ayt-sam u - yo - la-man (vo - cy) ayt - ma-sam ar-mon

Ayt-sam u-yo-la - man vo-cy ayt - ma-sam ar-mon.

O-hu g'i-za - lim. qo-shi hi - lo - lim O-hu g'i-za -

lim, qo-shi hi - lo - lim vo-cy Bu-dur sa-vo - lim ma-ni is - tar ja - vo -

bin. Bu-dur sa-vo - lim ma-ni is - tar ja - vo-bin Zavq o'r - ta -

sin-da ei o - ra-sin - da, ei o - ra-sin - da yon-sam u-yo-

la-man vo - yey yon - ma-sam ar-mon yon-sam u - yo -



Ul mehrbonim, ul yor-u jonim,
Oh-u fig'onim mani bilmadi hargiz.
Ohim dardini ko'ksim o'tini,
Aytsam uyolaman, aytnasam armon.

Ohu g'izolim, qoshi hilolim,
Budur savolim mani istar javobim.
Zavq o'rtasinda, el orasinda
Yonsam uyolaman, yonmasam armon.

Ul sho'xi zolim chekmas malolim,
Darding chekarga qolmadi holim.
Yo'lin axtarib, izidan borib,
Go'rsam uyolaman, go'rmasam armon.

Chin bulbulizor man sho'xi nahor,
Yig'lab aytadi Ojiz bu dilaftgor.
Qo'lim bo'yninda, marjon o'rninda
Daqsam uyolaman, daqmasam armon.

TARG'UNCHA

O'rtacha tez

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtingan

San-ga bir so' - zim bor yax-shi qul-q sol. O-g'a ner-dan ol-ding bu tar -

g'un-cha-ni. A - jib bir xush- su-xu a-jab bir xush- xol, O-g'a ner-dan

ol-ding bu tar - g'un-cha-ni, Ner-dan to - pa qo'y-ding bu tar -

g'un-cha-ni.

Sanga bir so'zim bor, yaxshi quloq sol,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Ajib bir xushsuxan, ajab bir xushhol,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Nerdan topa qo'yding bu targ'unchani.

Ko'zlari nargizdir, qoshi hiloli,
Tillari sujidir, lablari bolli,
Ajib bir xushsuxan, ajab xush keldi,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Nerdan topa qo'yding bu targ'unchani.

Sarviga o'xshidi bu sarv-qomati,
Olamni tutibdi husni surati,
Bu qaysi malakni mohi talanti,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Nerdan topa qo'yding bu targ'unchani.

Tabassum aylabon qoshini qoqdi,
Ko'rib so'zlagani ichimni yoqdi.
Har kimga tushgani o'zini baxti,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Nerdan topa qo'yding bu targ'unchani.

Quloq soling Ojiz aytgan so'zlara,
Bu maktubni bag'ishladim sizlarga,
Bu kun olib g'aling uni bizlarga,
Og'a nerdan oldin bu targ'unchani,
Nerdan topa qo'yding bu targ'unchani.

OXTARAMAN

$\text{♩} = 96-100$

mf Do'st - lar,

ayb ay - la-mang Bir jo - na - jon ox ta - ra - man. Cho'li may - don - lar ga - zib,

Va - fo - li yor ox - ta - ra - man. *mp*

Do'stlar, ayb aylamang,
 Bir jonajon oxtaraman.
 Cho'li maydonlar gazib,
 Vafoli yor oxtaraman.



Na manga va'da berding,
 Aslo manga darkor emas.
 Va'dasidan qaytmag'an,
 Bafoli yor oxtaraman.

Bevafo yorg'a ko'ngil,
 Bergan zamon chekdim jafu.
 Sochlari beliga tushgan
 Vafoli yor oxtaraman.

EY MEHROBONIM

Sho'x, o'ynoqi

M. Xarratov so'zi va musiqasi



Ey mehribonim, shohi jahonim,
Xurshidi sonim, oromi jonim.
Shamshod qomat, xurshid tal'at,
Koni latofat sarvi ravonim.

Saningdek jahonda mahvash qayonda,
Yo'qdir makonda budur gumonim.
San bilan hamdam bo'lmasam birdam,
Kuyingda o'lsam, bo'yningga jonim.

Qosh-u ko'zingdin, shirin so'zingdin,
Oydek yuzingdin aylansin jonim.
Ey mohi paykar, xurshidi anbar,
Man sanga Chokar sarvi ravonim.

RO'MOLIM BOR

Yumshoq, erkalab

Xorazm xalq qo'shig'i



Ro' mo- lim bor ro' - mo - lim bor, Ro' mo- lim- da tu- mo - rim bor.

Bir xo' - jik - da xu - mo - rim bor (vox vox) Dod a - lim - nan get - di

ro' - mol. Dod a - lim - nan get - di ro' - mol.

Ro'molim bor, ro'molim bor,
Ro'molimda tumorim bor.
Bir xo'jikda xumorim bor,
Dod alimdan getdi ro'mol.

Ro'molimni uchi shoyi,
O'rtasida bordir oyi.
Olib baring jonim oyi,
Dod alimnan getdi ro'mol.

Ro'molim tushib getdi yopa,
Yor eshitsa bo'lar xapa,
Yora borib ayting jonim opa,
Dod alimnan getdi ro'mol.

Dim chiroyli adi ro'mol,
Alimnan uchirdi shamol
Ota-onam ham kambag'al,
Dod alimnan getdi ro'mol.

Ro'molda adi xayolim,
Zobun bo'ldi hamma ahvolim,
Ham tushar yodima yorim,
Dod alimdan getdi ro'mol.

Alim – qo'lim. Getdi – ketdi. Yop – ariq. Doyi – tog'a. Dim – juda. Xo'jik – yigit.

O'RAMA-O'RAMA

Shoshmasdan

Xorazm xalq qo'shiqi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

O'-ra ma o' -

ra-ma oq-ni o'-ra - ma. O-shiq-lik dar - di-ni man-nan so' ra -

ma O-shiq-lik dar - di-ni man-nan so'-ra - sang (yo - ey)

O'-zim-nan bosh - qa - ga as - lo qa - ra - ma.

O'rama-o'rama, oqni o'rama,
Oshiqlik dardini mannan so'rama.
Oshiqlik dardini mannan so'rasang,
O'zimnan boshqaga aslo qarama.

Saman otni sarasini mingaysiz,
Yoqasi norkadan poltun giygaysiz.
Hech kimni damasdan sizni davadim,
Iloyim, baxtimiza siz o'lmagaysiz.

Qizil gulim qo'limdadur gullagay,
Qizil gullarimdan dushman yulmagay.
Qizil gulni akkan yigit soz bo'lg'ay,
Qizil yuzlarimnan hayron bo'lmagay.

Orqa yona chiqib xabar baraman,
Ro'molim boshima solavaraman.
Aytavarmang palonkasjon odini,
Odini aytasangiz yonavaraman.

Odini aytasangiz tanim qaqshiydi,
Diri ayriliqdan o'lgan yaxshi adi,
Galaman, deb va'da bergan oqshomi,
Yoshullisi yubormagan o'xshiydi.

Mannan – mendan. O'zinnan – o'zimdan. Davadim – deb edim. Yona – yonga.
Yonavaraman – yonaveraman. Dir – tirik. Adi – edi. Yoshullisi – o'zidan katta
yoshdagi kishi (er ma'nosida).

OG'A DAROM

O'rtacha tez

Xorazm xalq qo'shig'i

Biz-ni ay-von siz-ni ay-von

a-mas-mi, Or-ta-si-da chin-ni nar-von a-mas-mi. Ga-la-siz ge-la-siz bu so'z

ayt-may-siz, Bu-lar han-yu-rak-da ar-mon a-mas-mi. O-g'a-da-rom

ro'm-mo-ling-ga gul bodom, Xo'-jik da-rom bel-bo-g'ing-ga gul bo-dom.

Bizni ayvon, sizni ayvon amasmi?
O'rtasida chinni narvon amasmi?
Galasiz gatasiz bir gap aytmay-siz,
Bular ham yurakda armon amasmi?

Sori ipak to'ni so'lgo'ni qurg'ay,
Orqama tashlasam, yozilib durg'ay,
Oshiqlikni manisini bilyanda,
O'rgatib-o'rgatib, qo'rg'ani qurg'ay.

Og'a darom, ro'molinga gul bodom,
Xo'jik darom, belbog'inga gul bodom.

Og'a darom, ro'molinga gul bodom,
Xo'jik darom, belbog'inga gul bodom.

Bog' yona chiqvadim gullani ichi,
Hamma yor ichinda bizni yor kichchi.
Ullisida-kichchisinda na gap bor?
Yonina borsangiz jannatni ichi.

Og'a darom, ro'molinga gul bodom,
Xo'jik darom, belbog'inga gul bodom.

XURSHIDI JAHON GALDI

Bir tekis, shoshmasdan

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Bu kul - ba-i

ch-zo - na bu kul - ba-i ex-zo - na Xur-shi - da ja - hon gal - di. sur-shi - di ja - hon gal - di.

Go'yo - ki o' - lik er - dim jis - nim a - ro jon gal - di. jis - nim a - ro

jon gal - di Jo - quv, jo - quv, jo - quv, jo - quv, jo - quv.

Bu kulba-i ehzona,
Xurshidi jahon galdi.
Go'yoki o'lik erdim,
Jismim aro jon galdi.
Joquv, joquv, joquv, joquv, joquv.

A'zosi Samandardin,
Donishda Iskandardin.
Qor aylasa ajdardin,
Chin nuri ayon galdi.
Joquv, joquv, joquv, joquv, joquv.

Ajdarhodin yastanib,
Ganji nihona zulfing.
Olamga anbar sochar,
Tekkanda shona zulfing.
Joquv, joquv, joquv, joquv, joquv.

Sani adab-ikroming,
Qizlardin o'zga bo'lsin.
Shirin takallum aylab,
Jon qo'shdi, jona zulfing.
Joquv, joquv, joquv, joquv, joquv

GALMADI-GALMADI

Yolvorib, mayin

O'zi so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Ge - cha - gun - dūz - yo'll - la -

ri - na - qa - ri - man. Gal - ma - di gal - ma - di (vo - ey) nu - chun gal - ma - di. Yu - ra - gim a -

zil - di, bag' rim di - lin - di Gal - ma - di gal - ma - di (vo - ey) nu - chun gal - ma - di

di Gal - ma - di gal - ma - di (vo - ey) nu - chun gal - ma - di.

Gecha-gunduz yo'llarini qariman,
Galmadi-galmadi, nuchun galmadi.
Yuragim azildi, bag'rim dilindi,
Galmadi-galmadi, nuchun galmadi.

O'zi xush qiliqli, va'dasi yolg'on,
Mudom oshiqlikni xayliga qolg'an.
Va'dasi yolg'onnan ko'nglimiz qolg'an,
Galmadi-galmadi, nuchun galmadi.

Qush uyquda yotsam, girar dushima,
Seskanib uyg'onsam, tushar yodima,
Oh, dayanida yosh aylanar go'zzima,
Galmadi-galmadi, nuchun galmadi.

Giriftor aylamang, g'atib Sunani,
Giriftor aylamang, man muhtaloni,
O'z boshima sotib oldim baloni,
Galmadi-galmadi, nuchun galmadi.

Galmadi – kelmadi. Azildi – ezildi. Nuchun – nimaga. Dilinda – tilida. Girar dushi-
ma – kirar tushimga. Dayanda – deganda. Go'zzima – ko'zimga.

OLTI XALFA

Osoyishta, bir tekis

Xorazm xalq qo'shig'i

O. Rahimov garmonga moslashtirgan

Olti xal-fa bi -

ri Oy-sha. Bor-moq-la - ri qo' - sha qo'-sha. Qo' shiq ay-tar jo' - sha jo' - sha ey

E-la bal - ki ol - ti xal - fa. Olti xal - fa bi - ri Yo-qut, O'ti - tir-di qo -

shin qo - qib. Ham-ma-lar - ga qol - gan yo - qib ey. E - la bal - ki ol -

ti xal - fa. Jo - qu - va ey jo - qu - va, jo - qu - va ey jo - qu - va.

Olti xalfa – biri Oysha,
Barmoqlari qo'sha-qo'sha,
Qo'shiq aytar jo'sha-jo'sha,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa – biri Yoqut,
O'tiribdi qoshin qoqib,
Hammalarga qolgan yoqib.
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa – biri To'ti,
Chellara bitgan suv o'ti.
Yuragida bordir o'ti,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa – biri Tursin,
Orvaga sakrab o'tirsin,
Orvani ko'chari sinsin,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa – biri Bo'ston,
Odlari olama doston.
Yurgan eri bog'u bo'ston,
Ela balli olti xalfa.

Olti xalfa – biri Fotma,
Uzin bo'yli, bo'yi qotma.
Qizil yuzli, qoshi chetma,
Ela balli olti xalfa.

Ela – elga. Chellara – egatlarga. Ko'char – aravaning g'ildirak kiygiziladigan o'qi.

XO'SH GALDINGIZLAR

Yumshoq, hurmat bilan

Ojiza so'zi va musiqasi

R. Yunusov garmonga moslashtirgan



Javob endi sizga, aziz mehmonlar,
Begila bey taqsir xo'sh galdingizlar.
Sizga fido bo'lg'ay bu shirin jonlar,
Beliga bey taqsir, xo'sh galdingizlar.

Mudom yaxshi niyat mani ko'nglimda,
Har kim sag' o'tirgay uyli-uyinda.
Mudoma galgaysiz yaxshi gunimda,
Beliga bey taqsir, xo'sh galdingizlar.

Mani bu so'zimni mafol olmanglar,
Eylanganglar uyqungizdan qolmanglar.
Indigi tuygacha beg'am bo'lmanglar,
Beliga bey taqsir, xo'sh galdingizlar.

Mani bu so'zimni qabul qilinglar,
Pamdor bo'lsangiz, anglab bilinglar,
Gazal saf bo'lgay, so'ng darrov turinglar,
Beliga bey taqsir, xo'sh galdingizlar.

Endi man so'zimni ayladim tamom,
Har kim sag' o'tirgay uyinda omon,
So'ragana ayting duo-yi salom,
Beliga bey taqsir, xo'sh galdingizlar.

Galdingizlar – keldingizlar. Meymonlar – mehmonlar.
Galgaysiz – kelgaysiz. Guninda – kuninda.

GUL O'G'LON

♩ - 84

Gul o'g' lo-na

gul o'g' - lon, Gulqad-ri - ni bil o'g' - lon. Gul o'g' lo-na gul o'g' - lon,

gul qad-ri - ni bil o'g' - lon. Gul qad-ri - ni bil-ma-sang ay. Cha-man-da bul

bul o'g' - lon. O - ro - mi - jon ni - go - rim (ay). Sar - vi ra - von

ni-go - rim. Na qol-di men - da to - qat (ay) Na qil - sang ix - ti - yo - ring.

Gul o'g'lona, gul o'g'lon,
 Gul qadrini bil o'g'lon.
 Gul qadrini bilmasang gar (ay),
 Chamanda bulbul o'g'lon.

Naqarot

Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim,
 Na qoldi menda toqat, na qilsang ixtiyor.

Dog'lara qor tushibdi,
 Ko'nglima yor tushibdi.
 Yorga bichilgan ko'ylak,
 Yoqasi dor tushibdi.

Naqarot

Bir ko'rsatib o'zingni,
 Qo'yding mani baloga.
 Nadur maning gunohim,
 Chekding o'zing panoga.

Naqarot

OLMA GALIBDI, NOR GALIBDI DIYDILAR

O'ynoqi

A. Bobojon so'zi
M. Yusupov musiqasi

Ol-ma-ga-lib-di nor ga-lib-di diy-di-lar, Va-da-si-da bor ga-lib-di diy-di-lar.

Yan-gi bog'da bir-ga dav-ron su-ra-li, Biz-ni is-tab yor ga-lib-di diy-di-lar.

Biz-ni is-tab yor ga-lib-di diy-di-lar. Gal-gul yo-rim

man o'r - gi-lay jo-ning-nan, As-lo get-gim gal-mas sa-ni yo-ning-nan.

Olma galibdi, nor galibdi, diydilar,
Va'dasida bor galibdi, diydilar.
Yangi bog'da birga davron surali,
Bizni istab yor galibdi, diydilar.
Gal-gal yorim, man o'rgilay joningnan,
Aslo getgim galmas sani yoningnan.

Umr-umr bir va'dada durali,
Gal gulzorlar ichra o'ynab, gulali,
Mehnat sharofati shinam bog'larda,
Do'st-u yorlar bilan davron surali,
Gal-gal yorim, man o'rgilay joningnan,
Aslo getgim galmas sani yoningnan.

Qo'limizda gullar ochsin sahrolar,
Hayot suvin cho'lga bursin daryolar.
Chamanlar undirib sahro qirlarda,
Har gulga bir qilaylik biz parvolar.
Gal-gal yorim, man o'rgilay joningnan,
Aslo getgim galmas sani yoningnan.

Galibdi – kelibdi. Diydilar – deydilar. Galmas – kelmas.
Durali – turaylik. Gulali – kulaylik.

OG'AJON, OMON-OMON

O'ynoqi

Xorazmi xalq qo'shig'i

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Yop bo'yin-da yo - rim ma - ni. Do'-lib dur-gan o - yim ma - ni. Yot el-la-ra
nu - chun gal - ding, Yor ko'ng - li - ma nu - chin gir - ding.
O - g'a - jon o - mon o - mon Shu gun-lar yax-shi za - mon.

Yop bo'yinda yorim mani,
Do'lib durgan oyim mani,
Yor, berlara nuchun galding,
Yor, ko'nglima nuchun girding.

Og'ajon, omon-omon,
Shu gunlar yaxshi zamon.

Olmani ayirdilar,
Shoxosini qayirdilar.
Yaxshi go'rgan yorimnan,
Gap so'z bilan ayirdilar.

Og'ajon, omon-omon,
Shu gunlar yaxshi zamon.

Olmani oqi bilan,
Yoninda yaprog'i bilan,
Bizni yor xat yozadi,
Kichkina barmog'i bilan.

Og'ajon, omon-omon,
Shu gunlar yaxshi zamon.

Daryoni o'rtasinda,
Sang boradi, sang galadi,
San bilan sakkiz o'rdak,
Dang boradi, dang galadi.

Og'ajon, omon-omon,
Shu gunlar yaxshi zamon.

O'rdaklar oyog'ina,
Ipak garak jonim chiqon
Yor bilan uchrashmoqqa,
Yurak garak jonim chiqon.
Og'ajon omon-omon,
Shu gunlar yaxshi zamon.

Og'ajon – akajon. Do'lib durgan – to'lib turgan.
Yor berlara nuchun galding – yor, bu yerlarga nega kelding.
Gunlar – kunlar. Dang – teng. Garak – kerak. Chiqon – dugona, o'rtoq.

QAYDIN GALDING

♩ = 100

mf Qa-ro ko'z -

li se-var yo - rin. So'z la jo - ni - m(a). qay-din gal - ding.

So'z la jo - ni - m(a), qay-din gal - ding. Sha-ka-r-dan so' - zi na - za -

lim So'z la jo - ni - m(a). qay-din gal - ding. So'z la jo - ni - m(a).

qay-din gal - ding. O' zi - ni o'x

shat - dim bul - bu - la, O - shiq - man, tush - dim bu yo' - la,

Bo g'ing - da - gi to - za gu - la, So'z la jo - ni - m(a),

qay-din gal - ding, Bo g'ing - da - gi to - za gu - la, O - hu ko'z - li -

m(a) qay-din gal - ding,

San ni-chik kir - ding bu - bo - g'a, Jo - nim jo -

ning - dan sa-do - g'a, O-shiq bo'l - sang kel bu ba - g'a,

So'z la jo - ni - m(a), qay-din gal - ding,

O Gul o - uli - lar

al-von al - von, Ko'-rib aq - lim bo'l-di hay - ron, Shi - rin jo -

nim, sen-ga qur - bon, So'z la jo - ni - m(a), qay-din gal - ding.

Shi - rin jo - nim, sen-ga qur - bon, O - hu ko'z - li - m(a)

Qay-din gal - ding, O - ti - ma de

mish - lar Bah - rom, Man-da yo'q - dur sab - ru o - rom, Iz - la - gan

yo - rim Gu - lan - dom, So'z la jo - ni - m(a), qay - din gal -

ding, iz - la - gan yo - rim Gu - lan - dom,

Sha - kar so'z - li - m(a) qay - din gal - ding.

BESHIK ASHULASI

• 72

mf Vo-xo - vo-xo -

vo-xo - si, Qi-zil gul-ning sho - xo - si. Qum-da sa-lin ay-lon - sin. Mo-mo-si

ga - kin ay - lon - sin. To - voq - da ij - jon ay - lon -

sin. Xu - la - si Ni - yoz - jon ay - lon - sin.

Voho-voho-vohosi,
Qizil gulning shoxosi.
Qumda salin aylonsin,
Momosi galin aylonsin,
Tovoqda ijjon aylonsin,
Xolasi Niyozjon aylonsin.

Otoshkur, belcha aylonsin,
Samovar, tuncha aylonsin.
Aylonib turg'on uchurdin,
Qozon yolog'on kuchukdin,
Mirillob yotg'on pishikdin,
To'ti xolosi aylonsin.

Salin – o'tni nomi. Ijjon – qiyma. Tuncha – suv qaynatadigan qumg'on.

QO'SHA-QO'SHA

O'ynoqi

Xalq so'zi

M. Otajonov musiqasi

Xi-va- miz - ni dar-vo-za-si qo'sha qo'sha To'y-la - ri - ni

o-vo - za-si qo'sha qo'sha Bax-ti- yor - lar gu- lib chiq-sin to'y to' - ri-na,

San'-at - ko - ru raq-qo - sa - si qo'sha qo'sha qo'sha qo'sha

To'y bo'l - sin. to'y bo'l - sin to'y - lar yax - shi - dir.

To'y - lar tinch - lik tin - so - li ha - yot naq - shi - dir.

Xivamizning darvozasi qo'sha-qo'sha,
To'ylarining ovozası qo'sha-qo'sha.
Baxtiyorlar gulib chiqsin to'y to'rına,
San'atkor-u raqqosasi qo'sha-qo'sha.

To'y bo'lsin, to'y bo'lsin, to'ylar yaxshidir,
To'ylar tinchlik timsoli, hayot naqshidir.

Farovon hayotga payvasta to'yla,
Vatan tomoshasin guldasta to'yla.
To'yla atsin davom, doimo-mudom,
Yubilyar yoshlarga bizdan ehtirom.

To'y bo'lsin, to'y bo'lsin, to'ylar yaxshidir,
To'ylar tinchlik timsoli, hayot naqshidir.

Gulib – kulib. Hayota – hayotga. To'yla atsin – to'ylar qilsin.

SANGAR

O'rtacha tez

Xorazm xalq qo'shig'i

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Man-zil jo-yum Pol-von yop-ni or-qi-si Ma-ni hay-ron

at-di vah-vah, Xi-va qal'-a - si San-gar-ni bo - g'i-ni zav-qi sa-fo

si Gaz-dim har joy - la-ni vah-vah San-gar yax-shi a - di

San-gar-da o - chil-gan vah vah gul-lar yax - shi a - di.

Manzil joyim Polvon yopni orqasi,
Mani hayron atdi, vah-vah, Xiva qal'asi.
Sangarni bog'ini zavqi safosi,
Gazdim har joylani Sangar yaxshi adi.
Sangarda ochilgan gullar yaxshi adi.

Sangarni bog'inda olma pishibdi,
Olma yemak ko'nglimiza tushibdi.
Bulbullar sayrashib haddan oshibdi.
Gazdim har joylani Sangar yaxshi adi.
Sangarda ochilgan gullar yaxshi adi.

Sangar odamlarin so'zi mazali,
Har yerda tayyordir meymonni joyi,
Sangarni bog'ini guli chiroyli.
Gazdim har joylani Sangar yaxshi adi.
Sangarda ochilgan gullar yaxshi adi.

Sangarni bog'innan olma gatirdik,
Yemadik, ichmadik, o'ynab o'tirdik,
Dasturxon ustini guldin do'ldirdik,
Gazdim har joylani Sangar yaxshi adi.
Sangarda ochilgan gullar yaxshi adi.

Sangar – Xivadagi mahalla nomi. Hayron atdi – hayron qildi. Boylani – boylami.
Meymonni – mehmonni. Adi – edi. Gatirdik – keltirdik. Do'ldirdik – to'ldirdik.
Polvon yopni orqasi – Pahlavon Mahmud nomi bilan yuritiladigan ariq.

QOPIDA BIROVLA DURG'AN O'XSHIYDI

O'rtacha tez

Xorazm xalq qo'shig'i
R.Yunusov garmonga moslashtirgan

O'z-la-ri shu - mal-lin chiq qan - da yo' - la. Chi-qing-la de -

sho-na(vo - ey) gal-yan o'x-shi - di. O'zi kich-ki - na-gi-na. yosh-gi-na bo -

la. yosh-gi - na bo - la, Chi-qing-la de - sho-na (vo - ey)

gal-yan o'x-shi - di. Qo-pi-da bi - rov la (vo - ey) dur-g'an o'x-shi - di.

O'zlari shu mallin chiqqanda yo'la,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi.
O'zi kichkinagina, yoshgina bola,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi.
Qopida damrilib durgan o'xshidi.

Shu gun xavar atti, o'zi galsin dab,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi,
Dushmanlarni tanda joni qoqildi,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi.
Qopida damrilib durgan o'xshidi.

Gech peshin mahallab chiqqanda yo'la,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi,
Bir davo aylangla tushmagay qo'la,
Chiqingla, deshona galyan o'xshidi.
Qopida damrilib durgan o'xshidi.

Qopida damrilib durgan o'xshidi – eshikda birovlar turganga o'xshaydi,
Mallin – mahal. Chiqingla, deshona galyan o'xshidi – chiqinglar, tashqariga
kelgan o'xshaydi. Damrilib – termulib. Xavar atti – xabar qildi.

QIZIL GUL BO'LMAGAY ADIM

Vazmin, g'amgin

Xorazm xalq qo'shig'i

R. Yunusov garmonga moslashtirgan

Qi-zil gul bo'l - ma-gay a-dim. O-chi-lib so'l

ma-g'ay a - dim Bu na xas - rat bu na qay g'u

O-nam - dan bo'l - ma-gay a - dim.

Qizil gul bo'lmag'ay adim,
Ochilib so'lmag'ay adim.
Bu na hasrat, bu na qayg'u,
Onamdan bo'lmag'ay adim.

Qizil gullar ancha-ancha,
Injitmanglar mani buncha.
Mani sira o'chmas o'tim,
Yer bilan qovushmaguncha.

Qizil gullar dasta-dasta,
Hasrat bilan bo'ldim xasta.
Xolimni so'r galib asta,
Bo'lmas shifo galmaguncha.

Qizil gullar dona-dona,
Manga yordandir nishona.
Beparvo yor topilarku,
Topilmaydi ota-ona.

Qizil gul guncha-ha guncha,
Yurakda dardlarim ancha.
Galib yonimda o'tirgan,
Qizil gullar ochilguncha.

Injitmanglar – ozor bermanglar. Galib – kelib.
Galmaguncha – kelmaguncha. Anadan – onamdan. Adim – edim.

XORAZM FOLKLOR QO'SHIQCHILIGI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. **«Xalfa»** so'zi qanday ma'noni bildiradi?

- A. «Ashulachi»
- B. «Rassom»
- D. «Boshqaruvchi»
- E. «Raqqosa»

2. **«Garmon»** cholg'usi Xorazmga qachon kirib kelgan?

- A. XVIII asrda
- B. XIX asrning ikkinchi yarmida
- D. XX asrda
- E. XVIII asr oxirlarida

3. **«Ojiza»** taxallusi bilan ijod qilgan xalfa kim?

- A. Onabibi Otajonova
- B. Bibijon Qosimova
- D. Oyisha Iskandarova
- E. Aytjon Safayeva

4. Xalfachilik san'ati asosan kimlar orasida joriy etilgan?

- A. Bolalar
- B. Erkak xofizlar
- D. Ayollar
- E. To'g'ri javob yo'q

5. **«Sheroziy»** taxallus bilan ijod etgan san'atkor kim?

- A. Abdusharif Otajonov
- B. Otajon Xudoyshekurov
- D. Madrahim Yoqubov
- E. Matyusuf Xarratov

6. **«O'lguncha sizni derman»** qo'shig'ining muallifi kim?

- A. Xonim xalfa
- B. Ojiza

- D. Guljon qori
- E. Oyisha xalfa

7. «Sozi xalfa» deb qaysi yoʻnalishdagi xalfalarga aytiladi?

- A. Sheʼr oʻqiydigan
- B. Sheʼr oʻqib, raqsga tushadigan
- D. Diniy mavzudagi kitoblarni oʻqiydigan
- E. Soz chalib, qoʻshiq kuylaydigan

8. «Kitobiy xalfalar» deb qaysi yoʻnalishda ijod qiladigan xalfalarga aytiladi?

- A. Joʻrnavoʻzsiz, cholgʻusiz xalq kitoblarini maʼlum ohanglarda oʻqiydigan
- B. Doira chalib kuylaydigan
- D. Yakka oʻzi qoʻshiq kuylaydigan
- E. Garmon chalib kuylaydigan

9. Xorazm dostonlari qanday ovozda ijro etiladi?

- A. Boʻgʻiq ovoz
- B. Ochiq ovoz
- D. Boʻgʻiq va ochiq ovoz
- E. Toʻgʻri javob yoʻq

10. Xorazm dostonlari asosan qaysi dostonlardan tashkil topgan?

- A. «Alpomish» dostoni
- B. «Avazxon» dostoni
- D. «Oshiq Gʻarib va Shohsanam» va «Bozirgon» dostonlari
- E. Hamma javob toʻgʻri

11. Nazira xalfaning ustoz kim?

- A. Ojiza
- B. Xonim xalfa
- D. Ullibibi xalfa
- E. Anash xalfa

12. «Muborak bo'g'ay» qo'shig'ining muallifi kim?

- A. Nazira xalfa
- B. Ra'no xalfa
- D. Sora xalfa
- E. Ojiza

13. Birinchi bo'lib Xorazm san'atiga «garmon» cholg'usini olib kirgan san'atkor kim?

- A. Xonimjon Said Ahmad qizi, Onajon Sobirova
- B. Bibijon Qosim qizi, Onabibi Otajon qizi (Ojiza),
- D. Safo Ollaberganov, Jumanyoz Ro'zmatov
- E. To'g'ri javob yo'q

14. O'zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida «Garmonchi qizlar» ansambli nechanchi yilda tashkil qilingan?

- A. 1939-yilda
- B. 1950-yilda
- D. 1969-yilda
- E. 1972-yilda

15. «Kitobiy xalfa»lar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ojiza, Shukur xalfa
- B. Xonim xalfa, Guljonposhsha xalfa
- D. Nazira xalfa, Anash xalfa
- E. Parda xalfa, Guljonposhsha xalfa

16. Xorazm doston ijrochilarida qaysi sozlar jo'r bo'ladi?

- A. Do'mbira
- B. Qo'biz
- D. Dutor, g'ijjak, bulamon, doira, tor
- E. Hamma javob to'g'ri

17. Lapar qo'shiqlari qaysilar?

- A. «Oxtaraman», «Pardevol», «Galmadi-galmadi»
- B. «Munojot», «Lazgi», «Suvora»

- D. «Ey nozanin», «Feruz I», «Feruz II»
- E. To'g'ri javob yo'q

18. Xorazm dostonchilik maktabi namoyandalari kimlar?

- A. Abdulla Nurali o'g'li, Islom Nazar o'g'li
- B. Shernazar Beknazar o'g'li, Umar Safar o'g'li
- D. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qalandar baxshi
- E. Normurod baxshi, Mardonqul baxshi

19. Xorazmda «Garmonchi qizlar» ansambli nechanchi yil va kimlar tomonidan tashkil etilgan?

- A. 1969-yil, Matniyoz Yusupov, Olmaxon Hayitova
- B. 1980-yil, Rustam Abdullayev, Gavhar Matyoqubova
- D. 1989-yil Ozod Zaripov, Gavhar Rahimova
- E. 2000-yil Rustam Boltayev, Gulbahor Mo'minona

20. Onabibi Otajonova (Ojiza) garmon chalishni kimdan o'rgangan?

- A. Matpano Xydoyberganov (Muhirkon)
- B. Matyusuf Xarratov
- D. Qodir Bobojonov
- E. To'g'ri javob yo'q

Yurtimiz mustaqillikka erishgach Yurtboshimiz tomonidan milliy qadriyatlarimizga, tariximizga, madaniyatimizga, san'at va adabiyotimizga e'tibor kuchaydi.

Necha asrlardan beri o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatları davr o'zgarishiga qaramay, bizgacha yetib keldi. O'zbek xalqi nafaqat o'zining boy tarixiga, balki betakror san'ati va madaniyatiga ega bo'lgan xalqdir.

Hozirgi davrimizda, ma'naviy madaniyatning eng yorqin va go'zal sohasi – san'atning jamiyatda tutgan o'rni yangi, yuksak pog'onaga ko'tarilishiga imkon yaratildi.

Eng qudratli kuch – ma'naviy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rni barkamol avlodni tarbiyalash bilan belgilanadi. Shu sababli, ma'naviyatni yangi yuksak pog'onaga ko'tarish Yurtboshimiz tomonidan alohida qayd etilgani bejiz emas.

Xalq ijodiyoti tubsiz bir ummondır. Uning bag'rida behisob meros mavjudki, uning sarhadları keng hamda xususiyatlarga va janrlarga boydır. Xalq qo'shiqchiligida yalla, lapar, allalar, terma, qo'shiq, dostonlar kabi hayot so'qmoqlarida insoniyatning umrini mazmuniga aylangan musiqiy meros shakllangan. Bu merosni avaylab-asrab kelayotganlar esa, haqiqiy san'at namoyandalaridir. Xalfachilik san'ati ham ana shunday avaylab kelinayotganligi barchamizga ma'lumdir.

Shuni alohida aytish mumkinki, dastlab savodxon ayollar boshlab bergan xalfachilik an'anasi davrlar o'tishi bilan, o'zining tarixiy zaminidan butunlay uzilmagan holda, takomillashib, xalq og'zaki ijodiyotining janrlari bilan boyib bordi. Ijroda turli usullar paydo bo'lishi natijasida esa, bu san'atning estetik-ijtimoiy ko'lamı kengaydi.

Xalfachilikning har bir taraqqiyot bosqichi muayyan ijtimoiy sharoitlarga bog'liq holda, o'ziga xos xususiyatlar kasb etganligi bilan o'zaro farqlanib turadi. Birinchidan – zardushtiylik aqidaları, ikkinchidan – islomiy e'tiqodlar, XX asrning 20-yillaridan keyingi davr – mafkura, 90-yillardan so'ng esa, milliy istiqlol g'oyasi ustuvorligi bilan xarakterlanadi.

Asrlar davomida xalfachilikning qoliplashgan, o'ziga xos ijrochilik an'analari shakllangan. Lekin, ular muayyan ijrochilik an'analari bilan bog'liq. Xususiy belgilar hamda mahalliy xususiyatlarni inkor etmaydi. Bu xususiyatlar xalfachilik markazlari va xalfachilik maktablarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Ularning har biri o'zbek xalq musiqa ijodi asarlarining variant janrlar va musiqaning o'rni, ijro usuli hamda badiiylik darajasiga ega. Shuningdek, ijrochi va ijodkor xalfalarning tasniflash muvofiqidir.

Musiqa ta'limida ijrochilik bo'limlarida o'quvchi va talabalariga xalfachilik san'atining tarixiy tomonlari, xalfachilik namoyandalari va ijro uslubini o'zlashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Dars jarayonida qo'shiqlarni turli mashqlar va vazifalar yordamida o'rgatish, ijro mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalfa qo'shiqlarini o'quvchilarga o'rgatish va amaliy o'zlashtirish bilan bir qatorda, texnik vositalar yordamida, ijrochi xalfalarning ijro usullarini, qo'shiq aytish mahoratini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa ta'limida ijrochilik bo'limlarida talabalariga video, audio yozuvlaridan foydalanib, qo'shiqni tahlil etib, qo'shiqning ijro uslubi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari, to'laqonli ijro etish imkonini beradi. Bu esa xalq ijodiyotining yetakchi turi bo'lgan xalfachilik san'ati va ijrochiligini, uning asarlarini kuylash, yosh avlodlarga yetkazish maqsadida qilinayotgan samarali ishlardan biridir.

Bizga ma'lumki, Xorazm shevasi O'zbekistondagi boshqa shevalarga qaraganda tubdan farq qiladi. Hattoki Xorazm viloyatidagi shaharchalar va qishloqlardagi so'zlashuv lahjalarining o'zi ham bir-biridan farq qiladi. Xorazm qo'shiqlariga qo'l urishdan avval, iloji boricha she'vani o'rganib, ana shundan so'ng ijro etishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qo'llanmamizdagi qo'shiq, yalla, laparlar Xorazm shevasida berilgan. Qo'shiqlardagi barcha so'zlarni adabiy tilga tarjima etib berilgudek bo'lsa, qo'shiqlardagi joziba, ohangdorlik, umuman kutilgan natijani bermay qoladi.

Xalfachilik san'atidagi qo'shiqlar ohangrabosi, joziba va o'ziga xos nozik qochirimlari, sho'x, o'ynoqilik, vazminlik kabi ijro uslublari bilan ajralib turadi. Bu qo'shiq so'zlari boshqa shevada kuylanadigan bo'lsa, qofiya ham, matn ham, qo'shiqdagi sifat, ohangdorlik ham buziladi.

Folklor qo'shiqchiligiga mehr bergan har bir san'atsevar aktyorlik mahoratini chuqur o'zlashtirgan bo'lmog'i lozim. Nafaqat qo'shiq, balki shu bilan birga, raqsga tusha olishi ham lozim. Xorazm folklor qo'shiqchiligini raqs jozibalarisiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Xalq og'zaki ijodiga mansub qo'shiq, yalla, lapar, termalarga «Lazgi», «Orazibon», «Yuz bir» kabi Xorazm raqslarida xalqimiz hayoti, orzu-umidlari ifoda etilgan. Folklor jamoasi xonandasi nafaqat qo'shiqchi, balki shu bilan bir qatorda, aktyor hamda raqqosa yoki raqqosdir.

O'zbek ma'naviy madaniyati tarixini, xalq og'zaki ijodi, an'anaviy qo'shiqchilik san'ati misolida o'rganish muhimdir. Zero, har qanday madaniyatni musiqasiz, ijrochilik madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtaiy nazardan ham o'zbek folklor qo'shiqchilik san'atini yoshlarga o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir.



Zulxumor Norboyeva va Poshshojon xalfa Ibragimova



O'zDSMI katta o'qituvchisi U.Kurbanova shogirdlari bilan



Zumrad xalfa Madrahimova



Nodira xalfa Bog'ibekova («garmon» cholg'usida)



Shirin Jumaniyazova garmonda (uch kishilik xalfa)



Ra'no xalfa Ollaberganova

GLOSSARIY

Ashula – kuy diapazonining kengligi, shaklan rivojlanganligi, mavzu va mazmunining teranligi bilan qo‘shiqdan farqlanadi.

Ashula yo‘li – xalq orasida keng tarqalgan, to‘plagan cholg‘u kuylarining ashula yo‘llari.

Avj – musiqa asarining yuqori pardalardagi cho‘qqisi, eng baland registrdagi davomli kuy tuzilmasi.

Doston – nasriy (proza) qismi, hikoya tarzida ma‘lum artistik mahorat bilan aytiladigan va ba‘zan rechitativ tarzida kuylanishi ham mumkin bo‘lgan, ammo she‘riy bo‘limlari doimo kuylanib ijro etiladigan musiqali – dramatik asar.

Folklor – XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llandi. «Folk» (folk) – «xalq», «Lor» (lore) – «bilim» «donolik», ya‘ni «xalq donishmandligi» degan ma‘noni anglatadi.

Katta ashula – kuyi rivojlanganligi, keng diapazon (uch oktava atrofida), asosiy melodik tuzilmaning badiha tarzida kuylanadiganligiga qaramay, metri (o‘lchovi) tartiblanmaganligi va kuyning rechitativligi bilan ajralib turadi.

Lapar – raqsboq kuyga ega bo‘lib, ko‘pincha o‘yin – raqs bilan ijro etiladigan qo‘shiq.

Og‘zaki an‘anadagi professional musiqa – kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan ashula va cholg‘u asarlar sifatida rivojlanib kelayotgan musiqa san‘ati.

Qo‘shiq – kuyi nisbatan kichik diapazonli bo‘lib, barmoq vaznidagi poetik matnning to‘rtlikdan iborat bandidan keyin naqarot uchraydi, har bir she‘riy misraga tugallangan kuy tuzilmasi to‘g‘ri keladi.

Yalla – keng tarqalgan o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan hisoblanib, asosan, raqs bilan hamohang ijro etiladi.

Xalq musiqasi – iste‘dodli xalq yoki xalq ijrochilarining san‘ati orqali og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tib yashab kelayotgan musiqa san‘ati.

Takt o‘lchovi – taktlar miqdorini bildiruvchi ko‘rsatgich. Bu o‘lchov miqdori taktlardagi kuchli va kuchsiz hissalar sonini

aniqlaydi. Takt o'lchovidagi yuqorigi raqam miqdoriy, pastki raqam esa necha hissaga bo'linishini ko'rsatadi. Takt o'lchovi musiqa asarining boshlang'ich qismida kalit va alteratsiya belgilaridan so'ng qo'yiladi.

Xalfa – Xorazmda shoir, sozanda va «garmon» cholg'usida qo'shiq ijro etuvchi xotin-qizlar. Xalfa «o'qimishli», «donishmand», «ustoz» degan ma'nolarini anglatadi. Xorazmda so'zga chechan, diniy, marosim kitoblarini o'qiydigan kitobiy, yakka xalfalarga ham «xalfa» atamasi qollaniladi.

Talqinchi – Xorazmda dutor, tor bilan xalq ashulalarini ijro etuvchi hofiz.

Tembr – (fr. *tembre* – qo'ng'iroq, tang'a, marka, ajratish belgisi, yunoncha – doira so'zidan) tovush tusi, har bir musiqa cholg'u asbobining yoki ashulachi ovozinig o'ziga xos tovush xarakteri.

Temp – (it. *tempo*, lot. *tempus*-vaqt) musiqa asarining ijro etilish sur'ati (tez-sekin) bo'lib, musiqaning xarakterini aniqlashga yordam beradi.

Terma – o'zbek folklorining janr turlaridan bo'lib, aytiladigan ashula so'zining har bir bandi turlicha mazmundan iborat. Odatda, terma ko'proq yallachilar, laparchilar va baxshilar tomonidan ijro etiladi.

Ufar, Ufor – 1. Yengil raqs musiqasi, doira usuli. 2. *Shashmaqom* nasr bo'limining eng oxirida keladigan raqsli ashula, $\frac{4}{3}$ o'lchovida keladi. Xorazm maqomlarida esa har bir maqomning chertim va aytim bo'limlari ufor bilan tugallanadi, har ikki bo'limdagi uforning zarbi $\frac{6}{8}$ o'lchovida bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
3. Jabborov I.I. Yuksak Madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – T.: O'zbekiston, 2012.
4. Matyoqubov O. Maqomot. – T.: Musiqa, 2004.
5. Madrimov B. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida Xorazm musiqa folkloridan foydalanish yo'llari. – T., 2010.
6. Matyoqubov B. Doston navolari. – T.: O'zbekiston, 2008.
7. Ro'zimboyev S. Ojiza. – T.: O'zbekiston, 2003.
8. Yunusov R. Olti xalfa. – Urganch, 1994.
9. Madrahimov Z., Nurmetov S. Targ'uncha. – Urganch, 1999.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. XORAZM XALFACHILIK SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI

1.1. Xalfachilikning tarixiy shakllanishi	6
1.2. Xalfachilikning o'ziga xos xususiyatlari	11

II bob. XALFACHILIK SAN'ATI IJROCHILIGIDA LIRIK QO'SHIQLARNI O'RGATISH USULLARI

2.1. Xalfachilik san'ati namoyandalari	17
2.2. Musiqa ijrochiligida xalfa qo'shiqlarini o'rgatish uslublari	30

Qo'llanmaga kiritilgan qo'shiqlarga qisqacha sharh ..	39
Muborak bo'lg'ay	47
Anajondin dilbar jahona galdi	48
Dig'ajon	49
Lachak	50
Arka qizlar	51
O'lguncha sizni derman	52
Tuninay	53
Qoshing qora – qora go'z	54
Jo'jjim aytaman	55
Qaydadir bilmam dildorim	56
Par devol	57
Uyolaman	58
Targ'uncha	60
Oxtaraman	61
Ey mehrobonim	62
Ro'molim bor	63
O'rama-o'rama	64
Og'a darom	65
Xurshidi jahon galdi	66

Galmadi-galmadi	67
Olti xalfa	68
Xo'sh galdingizlar	69
Gul o'g'lon	70
Olma galibdi, nor galibdi diydilar	71
Og'ajon, omon-omon	72
Qaydin galding	73
Beshik ashulasi	75
Qo'sha-qo'sha	76
Sangar	77
Qapida birovla durg'an o'xshiydi	78
Qizil gul bo'lmagay adim	79
Xorazm folklor qo'shiqchiligi bo'yicha	80
test savollari	80
Xulosa	84
Ilova	87
Glossariy	90
Foydalanilgan adabiyotlar	92

U. KURBANOVA

FOLKLOR QO'SHIQ IJROCHILIGI

O'quv qo'llanma

Muharrir *A. Tillaxo'jayev*
Badiiy muharrir *E. Abdikayirova*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Sahifalovchi *A. Boyxon*
Musahhih *S. Alimboyeva*



Nashr litsenziyasi AI 223, 16.11.2012
Bosishga 13.08.18-yilda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$
«Century Schoolbook» garniturasida
offset bosma usulida bosildi.
Shartli b.t. 5,58. Nashr hisob t. 6,0.
Adadi 50 nusxa. 117-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy.

ISBN 978-9943-14-555-9



9 789943 145559